

**O'ZBEKISTON REPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ASTANOVA GULNORA AMINOVNA**

**ARAB TILIDAN  
BOSHLANG'ICH KURS**

*5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat  
ta'lif yo'naliishi talabalari uchun "Sharq tillari (arab)" fanidan  
o'quv qo'llanma  
1-kitob*

**"Durdon" nashriyoti  
Buxoro – 2023**

**UO'K 811.411.21(075.8)**

**81.2Arab**

**A 85**

Astanova, Gulnora Aminovna.

Arab tilidan boshlang'ich kurs. 1-kitob [Matn] : o'quv qo'llanma / G.A.

Astanova .-Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2023.-100 b.

**KBK 81.2Arab**

Milliy istiqlolning ta'lim oldiga qo'yadigan vazifalaridan biri bugungi kunda oliy ta'limda jahonning ilg'or mamlakatlari mutaxassislari bilan raqobatdoshlikka iqtidorli mutaxassisni tayyyorlashdir. Oliy ta'lim tizimida darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik ko`rsatmalarning yangi-yangi avlodlari yaratilmasa, barkamol avlod, raqobatbardosh kadr haqida gapirib bo`lmaydi. Zero, hozirgi kunda barkamol avlod deganda «jismongan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, avvalo, o'z ona tilini va yana jahon tillaridan bir nechtasini mukammal biladigan yoshlari» tushuniladi. Vaholanki, ta`limdan ham, tarbiyadan ham maqsadimiz bitta: farzandlarimiz barkamol bo`lsin. Ushbu o'quv qo'llanma shu maqsad yo`lidagi harakatdir.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 7.12 dagi 1000-soni buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturiga muvofiq tayyorlangan bo'lib, 5120100 - filologiya va tillarni o'qitish ( o'zbek tili) ta'lim yo'naliшining «Sharq tillari (arab) » fanini (Fan/modul kodi ShTE3005) o'rganishga qaratilgan. Qo'llanma 1-kitob hisoblanib, arab tili fonetikasi va grammatikasi qoidalarining boshlang'ich kursini o'z ichiga olgan bo'lib, undan nafaqat filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat ta'lim yo'naliшi talabalari, balki arab tili yo'naliшi bo'yicha tahsil oladigan barcha tolibi ilmlar ham foydalana oladilar.

### **Taqrizchilar:**

**Y. Saidov**, filologiya fanlari doktori, professor

**N. Raximova**, O'zbekiston musulmonlari idorasi "Jo'ybori kalon" ayol-qizlar o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, sharqshunos

**O'quv qo'llanma Buxoro davlat universitetining 2023-yil 26-yanvardagi 30-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 30-13.**

**ISBN 978-9943-9203-8-5**

**1-MODUL. ARAB TILI TOVUSHLAR TIZIMI VA  
YOZUV****1-mavzu. Kirish. Fonetika va yozuv. Umumiylumotlar**

Reja:

1. Arab adabiy tilining vujudga kelishi.
2. Hozirgi zamon arab adabiy tilining shakllanishi.
3. Arab alifbosi.

**Tayanch iboralar:** arab yozuvi, arab adabiy tili, klassik arab tili, arab shevalari, arab alifbosi.

**Arab adabiy tilining vujudga kelishi.** Arab tili somiy<sup>1</sup> tillar guruhining janubiy tarmog‘iga taalluqlidir. Arab tili taraqqiyoti uch bosqichga bo‘lib o‘rganiladi: qadimgi, mumtoz va zamonaviy arab tili. Qadimiy Arab tili miloddan avvagi IV-V larga tegishli yodgorliklar orqali ma’lumdir. Ular asosida izlanuvchilar tilning grammatik qurilishini aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar. U mumtoz arab tilining paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Milodiy V-VII asrlarga kelib mumtoz arab tili takomilida muhim rol o‘ynagan qabila lahjalari orasida quraysh lahjasи eng e’tiborlisi bo‘ldi. Qurayshning umumlashma so‘zлари, iboralari, nafis til uslublarini har yil uzlusiz ravishda qadim savdo markazi bo‘lgan Makkaga tashrif buyuradigan arablarning boshqa qabila vakillari o‘z shevalariga singdirib, boshqa yerlarga ham tarqatishga muvaffaq bo‘lganlar. Mumtoz arab tilining rivojlanishiga birinchi sabab shu bo‘lsa, o‘sha davr arab shoirlarining sayllarda kuch sinashib, ularning g‘olib she’rlari teridan ishlangan sahifalarga bitilib, Ka’ba devoriga osib qo‘yish odatlari ikkinchi sabab bo‘lgan. Qur’oni Karimning nozil bo‘lishi natijasida mumtoz Arab tili badiiyati yanada go‘zallahgan va grammatik me’yorlari mukammallahashgan. VIII-IX

---

<sup>1</sup> Somiy tillar turkumi uch shoxobchaga bo‘linadi: janubiy – habash, arab va suqotra tillari; shimoli-g‘arbiy – oromiy, yahud (ivrit), finiqiy, maoniy, ug‘oriy, amoriy; shimoli-sharqi – aqqod tili (bobil va assuriy lahjalari bilan). Bu tillarning ko‘pi o‘lik til. Habash tili amhar, kuraga, harar, tigre, tigrinya kabi lahjalar shaklida mayjud; ivrit Isroilda qayta tiklandi; Kavkazdagi aysor tili assuriy (aqqod) lahjasining davomi hisoblanadi.

acrlarga kelib mumtoz arab tili grammatikasi ishlab chiqildi, islom dini yoyilgan o‘lkalarda rasmiy va ilmiy tilga aylandi. Islom tarqalishi natijasida Markaziy Osiyoda ham mumtoz arab tili uzoq vaqtga qadar xalqaro va ilmiy til bo‘lib keldi. Dunyo fani ravnaqiga katta hissa qo‘sghan buyuk bobokalonlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobi, Muhammad Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariylar shu tilda samarali ijod qilishgan. Mumtoz arab tili leksik jihatdan bir oz o‘zgargan holda, hozirga qadar arablarning adabiy tili bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunda 22 davlatning rasmiy tili zamonaviy arab adabiy tili hisoblanib, radio, televidenie, vaqtli matbuot va nashrlar shu tilda olib boriladi. Arab so‘zlashuv tili esa adabiy tildan keskin farqlanadi, fonetik va leksik jihatdan bir-biriga o‘xshamaydi. Arab lahjalari juda ko‘p bo‘lib, Misr, Sudan, Suriya, Iroq, Mag‘rib, Mavritaniya, Nigeriya, Kamerun lahjalariga bo‘linadi<sup>2</sup>.

Zamonaviy adabiy arab tili XIX asrdan boshlab yangicha ruhda shakllana boshladi. YAngi zamonaviy texnika va taraqqiyot tushunchalari va predmetlarini ifodalash uchun unga Ovrupo tillaridan ko‘p o‘zlashtirma so‘zlar kirib kela boshladi<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Talabov E. Arab tili. -T.:0’zbekiston, 1993. – B. 4-5.

<sup>3</sup> Ҳасанов М. Абзалова М. Араб тили дарслиги. –Т., Мовароуннахр 2004. – Б. 5-6.

## ARAB ALIFBOSI

Arab adabiy tilida 34 ta fonema bo'lib, shundan 28 tasi undosh, 6 tasi unlidir. Yigirma sakkizta harf quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

Hosil bo'lish o'rni			lab-lab	lab-tish	tanglay			bo'g'iz tovushlar					
sirg'aluvchi	portlovchi	shovqinli	b		d	d.	emfatik (tish orti)	old tanglay	til o'rta	chuqur tanglay	Yugori tovush paychaları	Pastki tovush paychalar	halqum
		jarangli	b		d	d.							
		jarangsi z			l	t.			k	q			,
	burun tovushlar	m						n					ham- za
sirg'aluvchi	shovqinli	jarangli			z	z	z.			g'	'ay		
		jarangsi z		f	c	s	c.	sh	x	x.	n		h
	tovushlar	o'						l	y				
tebranma tovushlar							r						
qorishiq tovushlar						j							

**Unli tovushlar va diftonglar.** Arab tilida oltita unli tovush (cho'ziq – ā, ī, ū, qisqa – a, i, u) va 2 ta diftong (ay, av) mavjud.

Unli tovushlar quyidagicha tasnif etiladi:

qator tilning ko'tarilishi	old	o'rta	orqa
yuqori	i, ī		u, v (uau)
o'rta			
pastki	- a ,	ā,	-

### Arab tilida yozuv

Arab tilida o'ngdan chapga qarab yoziladi va o'qiladi. Arab alifbosi 28 ta harfni o'z ichiga oladi. Shuningdek, harflardan uchtasi cho'ziq unlini ham ifoda etadi. Qisqa unlilar yozuvda harf shaklida berilmaydi. Bundan tashqari “hamza” belgisi ham mavjud, biroq “hamza” tovushi alifbo tarkibiga kirmaydi. Alifbo tarkibidagi harflarning 6 tasi ikki xil ko'rinishda, qolgani 4 xil ko'rinishda bo'ladi. Ayrim harflar shakl jihatidan bir-biriga o'xshasa-da, biroq nuqtalari bilan farqlanadi.

## Arab harflari

Nº	harflar nomi	harflar nomi arabiy yozuvda	Trans-krip-siya	alohida	so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida
1	alif	أَلْفٌ	ā, a	ا	ا	ا	ا
2	bā	بَاءُ	b	ب	ب	ب	ب
3	tā	تَاءُ	t	ت	ت	ت	ت
4	sā	ثَاءُ	s	ث	ث	ث	ث
5	jīm	جِيمٌ	j	ج	ج	ج	ج
6	x.ā	حَاءُ	x.	ح	ح	ح	ح
7	xā	خَاءُ	x	خ	خ	خ	خ
8	dāl	دَالٌ	d	د	د	د	د
9	zāl	ذَالٌ	z	ذ	ذ	ذ	ذ
10	rā	رَاءُ	r	ر	ر	ر	ر
11	zā	زَاءُ	z	ز	ز	ز	ز
12	sīn	سِينٌ	s	س	س	س	س
13	shīn	شِينٌ	sh	ش	ش	ش	ش
14	s.ād	صَادٌ	s.	ص	ص	ص	ص
15	d.ād	ضَادٌ	d.	ض	ض	ض	ض
16	t.ā	طَاءُ	t.	ط	ط	ط	ط
17	z.ā	ظَاءُ	z.	ظ	ظ	ظ	ظ
18	'ayn	عَيْنٌ	'	ع	ع	ع	ع
19	g'ayn	غَيْنٌ	g'	غ	غ	غ	غ
20	fā	فَاءُ	f	ف	ف	ف	ف
21	qāf	قَافٌ	q	ق	ق	ق	ق
22	kāf	كَافٌ	k	ك	ك	ك	ك
23	lām	لَامٌ	l	ل	ل	ل	ل
24	mīm	مِيمٌ	m	م	م	م	م
25	nūn	نُونٌ	n	ن	ن	ن	ن
26	hā	هَاءُ	h	ه	ه	ه	ه
27	vāv	وَاوٌ	v, ū, av	و	و-	و-	و
28	yā	يَاءُ	y, ī, ay	ي	ى	ې	ې
	hamza		'	ء			

## **Savol va topshiriqlar.**

1. Arab yozuvi va uning tarqalishi haqida ma'lumot bering.
2. Arab adabiy tilining vujudga kelishi haqida nimalar bilasiz?
3. Klassik arab tili haqida nimalar bilasiz?
4. Hozirgi zamон arab adabiy tilining shakllanishi haqida- chi?
5. Arab shevalari haqida nimalar bilasiz?
6. Arab alifbosini yod oling, Harflarning har bir ko'rinishini yozma mashq qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -Т.: O'zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.لزموه فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989 د.
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

## **2-mavzu. ا، ب، ت، ك، م، و، ن، ئ. harflari. Qisqa va cho'ziq unlilar.**

**Urg'u**

Reja:

1. ا، ب، ت، ك، م، و، ن، ئ harflari.
2. Qisqa va cho'ziq unlilar. Ularning yozuvda ifodalanishi.
3. Arab tilida bo'g'in.Urg'u.

**Tayanch iboralar:** o'zbek tili undoshlri, arab tili undoshlari, unlitovushlar, bo'g'in.

b, t, s, n, y, ī, ā, v, k, m tovushlari quyidagi to'rt xil ko'rinishdagi yozuv shakliga ega:

tovushlar	alohida	oxirida	o'rtasida	boshida
<b>b</b>	ب	ب	ب	ب
<b>t</b>	ت	ت	ت	ت
<b>s</b>	ث	ث	ث	ث
<b>n</b>	ن	ن	ن	ن
<b>ī, y</b>	ى	ى	ى	ى
<b>ā</b>	ا	ا	ا	ا
<b>v(w), ū</b>	و	و	و	و
<b>m</b>	م	م	م	م
<b>k</b>	ك	ك	ك	ك

"ب"-ҳарфи лаб-лаб, портловчи, жарангли товушни ифодалайди. Ўзбек тилидаги "б" товушидан фарқлапмайди.

"ت"-ҳарфи тил учи юқори тиш, портловчи, жарангсиз товушни ифодалайди. Ўзбек тилидаги "ت" товушидан фарқлапмайди.

"ث" ҳарфи тил учи юқори ва пастки тишлар ораси, сирғалувчи, жарангсиз товушни англатади. Ўзбек тилида бундай товуш йўқ, бироқ инглиз тилидаги th талаффузига ўхшайди.

"و" ҳарфи маҳражи лаб-лаб бўлган, сирғалувчи жарангли ярим ундош товуш. Бу товуш инглиз тилидаги «w» ҳарфи билан ифодаланадиган товуш каби.

"ر" – til o'rta, sirqaluvchi, jarangli undosh tovush. Ўзбек тилидаги "м" товуши каби.

"ي"- til orqa, jarangsiz, portlovchi shovqinli undosh tovush. Ўзбек тилидаги "к" товуши каби.

"ى"- til o'rta, sirqaluvchi, jarangli undosh tovush. Ўзбек тилидаги "й" товуши каби.

"ن"-til oldi, jarangli, portlovchi, sof sonor undosh tovush. Ўзбек тилидаги "н" товуши каби.

### Arab tilida unlilar

Arab tilida unlilar cho'ziq yoki qisqaligiga qarab muhim ahamiyat kasb etadi. Arab tilidagi unlilar 6 tadir: 3 ta cho'ziq - ā, ī, ū hamda 3 ta qisqa – a, i, u. Mazkur unlilar o'zi bilan yonma-yon kelayotgan undoshlar ta'sirida talaffuzda o'zgarib ham turadi. Buning natijasida ular talaffuzining har xil varianti vujudga keladi. Masalan,

“r” undoshi bilan birga kelgan “a” unlisi talaffuzda “o” tovushiga o’xshab ketadi. Masalan: qara’*a*→ *qaro’*a** (*o’qimoq*).

### **Qisqa unlilarning ifodalanishi**

Arab tilida qisqa unlilarni ifodalovchi harflar mavjud emas. Ularni faqat harf usti va ostiga qo’yiladigan belgilar ifodalay oladi. Belgilar odatda Qur’on va darslik matnlarini to’g’ri o’qish uchun qulaylik yaratish maqsadida qo’yiladi. Qisqa unlilarni bildiruvchi belgilar “harakatlar” deb ataladi.

Qisqa unli “a” - (fatxa), “i” - (kasra), “u” - (damma).

Bu harakatlar undosh harf ustiga yoki ostiga qo’yiladi. Masalan:

كِ ki

كُ ku

كَ ka

### **Cho’ziq unlilarning ifodalanishi**

Yozuvda cho’ziq unlilar – ā ; ī ; ū bo’sh harflar deb nomlangan (ا و ا) harflari orqali beriladi ۱ -ā ; ۲ -ī ; ۳ -ū .

Undoshlarning cho’ziq unlilar bilan birikishi quyidagicha:

كِيِّ kī

كُوِّ kū

كَأِّ kā

So’zdagi biror bir harf unlisiz kelsa, bunday undosh harf ustiga sukun belgisi qo’yiladi. Masalan, بَدْرُ *badr* to’lin oy.

### **Bo’g’in**

Arab tilida so’z bo’g’inlari quyidagicha bo’ladi:

1. Qisqa bo’g’in. Bir undosh va bir qisqa unlidan iborat bo’lgan bo’g’in qisqa bo’g’in deyiladi. Masalan: *fa*
2. Cho’ziq bo’g’in. Cho’ziq-ochiq bo’g’in, Agar bo’g’in cho’ziq unlida tugasa, cho’ziq-ochiq bo’g’in bo’ladi. Masalan: *qā-la* u dedi.
3. Agar bo’g’in undoshda tugasa, yopiq bo’g’in bo’ladi. Masalan: *s.ul-x.un* sulh.
4. O’ta cho’ziq bo’g’in. Undosh+cho’ziq unli+undosh shaklidagi yopiq bo’g’in tarkibida cho’ziq unli mavjud bo’lsa, o’ta cho’ziq bo’g’in deyiladi. Masalan: *shāb-bun* yigit.

## Urg‘u

Arab tilidagi urg‘u dinamik hisoblanib, ovozni ko‘taribroq talaffuz qilinadi. Shu jihat bilan o‘zbek tilidagidan farqlanadi. O‘zbek tilida urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushca, arab tilida urg‘u ko‘pgina hollarda so‘zning oxiridan boshlab uchinchi bo‘g‘inga tushadi. (Masalan, *kátaba*), yoki so‘zning oxiridan boshlab cho‘ziq unlisi bo‘lgan ikkinchi bo‘g‘inga tushadi. Bunda oxirgi unli va tanvinlar (-un, -an, va boshq.) hisobga olinmaydi. (Masalan, *kalām-kalāmun*).

### Savol va topshiriqlar

1. ا، ب، ت، ث، ك، م، و، ن، ئ harflarini mashq daftaringizga bir necha marta yozing.
2. Arab tilida qisqa va cho‘ziq unlilar qanday ifodalanad?
3. Cho‘ziq unlilarning yozuvda ifodalanishini bilasizmi?
4. Arab tilida so‘z bo‘g‘inlari necha xil bo‘ladi ?
5. Quyidagi harf birikmalarini o‘qing,yozing va transkriptsiyalang:

a) بَ تَ ثَ كَ مَ وَ نَ ئَ  
بَا تا ثا كا ما وا نا يا  
b) بُ ثُ كُ مُ وُ نُ ئُ  
بو تو ثو كو مو وو نو يو  
v) بِ تِ ثِ كِ مِ وِ نِ ئِ  
بي تي ثي كي مي ني يي وي

6. Quyidagi so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing, yozing, transkriptsiya asosida harakatlarini qo‘ying :

ناب <i>nāba</i>	كتاب <i>kitāb</i>	مكتوب <i>maktūb</i>
كلام <i>kalām</i>	كبير <i>kabūr</i>	تاب <i>tāba</i>
بان <i>bāna</i>	ثبت <i>sabata</i>	ثبوت <i>subūt</i>
بيان <i>bayān</i>	نبى <i>nabī</i>	

## Lug'at

ناب -	birovning vazifasini bajarmoq
بان -	(aniq) ravshan bo'lmoq; ayrilmoq, ajralmoq
تاب -	tavba qilmoq
ثبت -	qattiq turmoq, mustahkam turmoq; turg'un bo'lmoq
ثبوت -	mustahkamlik, barqarorlik, sabot
بيان -	tushuntirish, sharhlash, aniqlik, ravshanlik
نېيى پايگامبار -	payg'ambar
كتاب -	kitob
مكتوب -	xat
كلام -	kalom
كبير -	katta

Foydalaniman adabiyotlar:

- 1.Баранов X. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -T.: O'zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -T.: Nihol, 2010.
- 6.لزموه فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989 د.
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

## 3-mavzu. ذ، ر، ز، د، خ، ح، ج harflari. Tashdid

**Reja:**

1. ح، ج، خ، د، ز، ر harflari va ularning yozuv shakli.
  - 2.Shadda, ya'ni ikkilantirish belgisining so'zlarda ishlatalishi.
  3. Alif maqsura va ta-marbuta shaklining so'zlarda kelishi.
- Tayanch iboralar:** shadda, ikkilantirish, alif maqsura, ta-marbuta.

## Harflar yozuvি

tovushlar	aloxida	so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida
d	د	د	د	د
z	ذ	ذ	ذ	ذ
r	ر	ر	ر	ر
z	ز	ز	ز	ز
j	ج	ج	ج	ج
x.	خ	خ	خ	خ
x	څ	څ	څ	څ

"ج"-til oldi, jarangli, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;  
 "څ"-chuqur til orqa, jarangsiz, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;  
 "د"-til oldi, jarangli, portlovchi, shovqinli undosh tovush;  
 "ر"-til oldi, jarangli, sirqaluvchi, titroq sof sonor undosh tovush,  
 talaffuzida til uchi yuqori tishlarga yo'naladi, til oldi esa tanglayning old qismiga tegib turadi. چ ning talaffuzida til uchi titraydi. Arab tilidagi چ o'zbek tilidagiga qaraganda ancha qattiq talaffuz qilinadi. Arab tilidagi چ ning aytilishida til uchi ko'proq titraydi.

"ڙ" – til oldi, jarangli, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;  
 "ڏ"-tishora, jarangli, shovqinli, sirqaluvchi undosh tovush;  
 "ڦ"-sirqaluvchi, shovqinli, jarangsiz, bo'qiz undosh tovushi. ڦ ning talaffuzida muskullar tarang bo'lib tortiladi va tor oraliq hosil qiladi. Nafas chiqarganda havo shu oraliq orqali ishqalanib o'tadi, natijada sirqaluvchi jarangsiz undosh hosil bo'ladi, tovush paychalari titramaydi. Yumshoq tanglay ko'tariladi. Burun bo'shliqidagi havo yo'li berkiladi. Nutq organlari tarang bo'ladi<sup>4</sup>.

### Shadda belgisining so'zlarda ishlatalishi

Arab tilida ayrim so'zlar tarkibida undoshlarning ikkilanib kelish holati kuzatiladi. Ikkilangan undoshlar so'z o'rtasida hamda pauzali o'qishda so'z oxirida ham kelishi mumkin. Ikkilangan undoshlar

---

<sup>4</sup>Arab tili fanidan 22.05.00.-Sharq filologiyasi bakalavriatusasining I-IV kurslari uchun ma'ruza matnlari. -T.:2008. -B.14.

talaffuzda qattiqroq yoki o'sha harf ustida bir oz turib qolish bilan hosil qilinadi. Yozuvda ikkilangan harflar bitta harf bilan ifodalanib, ustiga "tashdid" ڦ belgisi qo'yiladi. Odatda arabcha matnlarda tashdid yozilmaydi. Bu belgini faqatgina Qur'on, darslik yoki she'riy asarlarda uchratish mumkin. Masalan, جَدَّاً *jiddan* (juda), مكمل *mukammalun* (komil), لِكْلٌ *likullin* (har birining), سَرْ *sirrun* (sir) kabi.<sup>5</sup>

### **Alif maqsura va ta-marbuta shaklining so'zlarda kelishi**

ي harfi y, ئ va ay diftongini ifoda etadi. Bundan tashqari u yana so'z oxirida keladigan ئـ (alif maqsura) cho'ziq ā tovushini anglatadi. Masalan, موسى *Mūsā* (Muso), رمى *ramā* (tashlamoq).

Bundan tashqari arab tilida "dumaloq t" ni anglatadigan "ta marbuta" deb nomlangan ةـ "t" harfini anglatadigan tovush ham mavjud. Bunday harfda tugagan so'z asosan muannas jinsga tegishli ekanligini anglatadi. Masalan، خزانة *. Jazā'ah*. Uning istisno qoidalari ham mavjudki, o'z o'rnida tushuntiriladi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. ئـ، زـ، دـ، خـ، حـ، جـ harflarini bir necha marta yozing.
2. Shadda, ya'ni ikkilantirish belgisining so'zlarda ishlatilishini tushuntiring.
3. Alif maqsura, ya'ni qisqa alif va ta-marbuta, ya'ni bog'langan "t" haqida nimalar bilasiz?
4. Quyidagi harakatlangan harf va birikmalarni ovoz chiqarib o'qing va yozing:

a) دـ ذـ رـ زـ جـ حـ خـ  
دا ذا را زا جا حا خا

b) ذـ ذـ زـ زـ جـ جـ خـ خـ  
دو ذو رو زو جو هو خو

v) دـ ذـ رـ زـ جـ حـ خـ  
دي ذي ري زي جي هي خي

<sup>5</sup> Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.:2007. – В.16.

## 5. Qiyidagi so'zlani yod oling:

زار	<i>zāra</i>	ziyorat qilmoq, ko'rgani bormoq, tashrif
buyurmoq		
دار	<i>dāra</i>	aylantirmoq, burmoq, (atrofida) aylanmoq
راود	<i>rāvada</i>	o'tinib so'ramoq, o'ziga og'dirmoq
وازر	<i>vāzara</i>	ko'maklashmoq, yordamlashmoq
زاد	<i>zāda</i>	ko'paymoq, kattalashmoq
كان	<i>kāna</i>	bo'lmoq
رجا	<i>rajā</i>	umid qilmoq

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -Т.: O'zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.لزموه فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

## 4-mavzu. ل، ق، ف، ط، ظ، ع، غ harflari. Tanvin

Reja:

1. harflari haqida ma'lumot.
2. Arab tilida tanvin turlari.
- 3.Tanvin damma (bosh kelishik)ning so'z oxirida o'qilishi. Tanvin kasra (qaratqich kelishik)ning so'z oxirida o'qilishi. Tanvin fatxa (tushum kelishik)ning so'z oxirida o'qilishi.

**Tayanch iboralar:** *tanvin, tanvin damma, tanvin kasra, tanvin fatxa.*

## Yozuv

<b>tovushlar</b>	<b>aloxida</b>	<b>so'z oxirida</b>	<b>so'z o'rtasida</b>	<b>so'z boshida</b>
<i>t.</i>	ط	ط	ط	ط
<i>z.</i>	ظ	ظ	ظ	ظ
'	ع	ع	ع	ع
<i>g'</i>	غ	غ	غ	غ
<i>f</i>	ف	ف	ف	ف
<i>q</i>	ق	ق	ق	ق
<i>l</i>	ل	ل	ل	ل

"خ"- chuqur til orqa, jarangli, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

"ف" - lab-tish, jarangsiz, sirqaluvchi, shovqinli undosh tovush;

"ق" - chuqur tilorqa, jarangsiz, portlovchi, shovqinli undosh tovush;

"ل"- til orqa, jarangli, yon, sof sonor undosh tovush; O'zbek tilidagiga nisbatan

yumshoqroq talaffuz qilinadi. «*Alloh*» so'zi bundan mustasno.

"ع"- portlovchi, jarangli, shovqinli, bo'g'iz undoshi. ع ning hosil bo'lishida bo'g'iz muskullari qattiq jipslashib taranglashadi. Jipslashish spazmatik qisilish xususiyatiga ega bo'ladi. Vaqf (pauza)dan so'ng muskul bir oz bo'shashadi. Bo'g'iz muskullarining qisqarishi vaqtida tovush psychalari titraydi. Shuning uchun ئ jarangli undoshdir. Yumshoq tanglay ko'tariladi va havo og'iz bo'shlig'i orqali chiqadi.

"ـ" – tish ora, shovqinli, portlovchi, jarangsiz undosh tovush. ـ ning talaffuzidagi nutq a'zolarining holati oddiy ـ dagidek. Lekin ـ ning talaffuzida tilning old qismi milkka qattiq tiralib, undan keskin ajraladi.

Til orqasi yumshoq tanglayga iloji boricha ko'tariladi. Havo og'iz bo'shlig'i orqali o'tadi.

"ـ" – tish orqa, shovqinli, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. Talaffuzida nutq a'zolarining holati ـ ga to'la mos keladi. Faqat ـ

ning talaffuzida tovush paychalari titragani uchun jarangli tovushga aylangan<sup>6</sup>.

### Arab tilida tanvinlar

Arab tilida aksariyat so‘zlar (ot, sifat, son) “-un”, “ -in”, yoki “-an” qo‘sishimchasi bilan tugaydi. Bu qo‘sishimchalar quyidagi harakatlar yordamida ifodalanadi.

nomi	talaffuzi	belgisi
Tanvin-fatxa	-an	ا - ئى
Tanvin-kasra	-in	ى -
Tanvin-damma	-un	ۇ -

Masalan, كتاباً كتابٌ كتابٌ

### Savol va topshiriqlar

1. ل، ق، ف، ط، ظ، ع، غ harflar yozuvini daftaringizga bir necha bor yozib mashq qiling.

2. Arab tilida tanvin turlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

3. Tanvin damma ,tanvin kasra, tanvin fatxaning so‘z oxirida o‘qilishiga doir misollar keltiring.

4. Quyidagi harf birikmalarini yozing va ovoz chiqarib o’qing:

a) قَ فَ عَ غَ صَ ضَ طَ ظَ

قا فا عا غا صا ضا طا ظا

b) قُ فُ عُ غُ صُ ضُ طُ ظُ

قو فو عو غو صو ضو طو ظو

v) قِ فِ عِ غِ صِ ضِ طِ ظِ

قى في عى غى صى ضى طى ظى

<sup>6</sup>Arab tili fanidan 22.05.00.-Sharq filologiyasi bakalavriaturasining I-IV kurslari uchun ma’ruza matnlari. -T.:2008. -B.14.

5. Quyidagi so‘zlarning tanvinlarini qo‘yib, har birini uch martadan yozing:

كلام	<i>kalām</i>	kalom	جبل	<i>jabal</i>	tog’
مداد	<i>midād</i>	siyoh	مال	<i>mālun</i>	boylik
جيبل	<i>jīlun</i>	avlod, nasl,zurriyot	لجام	<i>lijāmun</i>	yugan
محبور	<i>majbūrun</i>	majbur	محال	<i>majālun</i>	joy, makon
زواج	<i>zawājun</i>	nikoh, uylanish	منزل	<i>manzilun</i>	manzil, uy
ماك	<i>makrun</i>	hiyla	ملك	<i>mulkun</i>	mulk
ثمين	<i>samīnun</i>	qimmatbaho	مملوک	<i>mamlūkun</i>	egalik qilish
ثمن	<i>samanun</i>	narx-navo	مال	<i>jamālun</i>	chiroy

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -Т.: O’zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.لزموه فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القارة ، 1989 د.
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

### 5-mavzu. س، ش، ص، ض، ه harflari. Hamza

Reja:

1. س، ش، ص، ض، ه harflari. Yozushi. Talaffuzi.
  2. Arab tilida hamza undoshi.
  3. Qat’iy (o‘qiladigan) hamza va uning imlo qoidalari. Vaslali (o‘qilmaydigan) hamza va uning imlo qoidalari.
- Tayanch iboralar: *hamza, qat’iy hamza, vaslali hamza*.

**S** va **sh** tovushlari yozuvda س va ش ko‘rinishga ega bo‘lib, **s** nuqtasiz, **sh** uch nuqta ko‘rinishiga ega bo‘lgan bir xil shakldagi harfdir.

**s.** va **d.** undoshlari esa, ص va ض shaklida bo‘ladi. Ularning ham yozuv shakli bir xil bo‘lsa-da, nuqtasi bilan farqlanadi.

<b>s</b>	س	س	س	س
<b>sh</b>	ش	ش	ش	ش
<b>h</b>	ه	ه	ه	ه
<b>s.</b>	ص	ص	ص	ص
<b>d.</b>	ض	ض	ض	ض

"س" – til oldi, jarangsiz, sirg’aluvchi, shovqinli undosh tovush.

"ش" – til oldi, jarangsiz, sirg’aluvchi, shovqinli undosh tovush.

"ص" - til orqa, shovqinli, sirg’aluvchi, jarangsiz undosh tovush. ص ning talaffuzida nutq a’zolarining holati tish orqa س ning talaffuzi kabitidir. Til uchi pastki tishlar orqasiga tegadi, til orqasi havo o’tadigan oraliq hosil qilib qattiq tanglayga ko’tariladi. Bu oraliq س ga qaraganda ص da ancha tor bo‘ladi. Til va butun nutq a’zolari taranglashadi. Til orqasi iloji boricha yumshoq tanglayga ko’tariladi. طva ض kabi havo shiddat bilan chiqadi.

"ض" - tish ora, shovqinli, portlovchi, jarangli undosh. ض talaffuz hususiyati jihatdan ط ga to’la mos keladi. ض ning talaffuzida tovush paychalari titraydi.

Natijada bu tovush jarangli bo‘ladi. Shuni aytish kerakki, ط kabi ض ning aniq talaffuziga butun nutq a’zolarining, ayniqsa, tilning tarangligi bilan erishiladi.

"ه" - bo’qiz tovushi, jarangsiz, sirg’aluvchi, shovqinli undosh. O’zbek tilidagidan yengilroq talaffuz qilinadi<sup>7</sup>.

---

<sup>7</sup>Arab tili fanidan 22.05.00.-Sharq filologiyasi bakalavriaturasining I-IV kurslari uchun ma’ruza matnlari. -T.:2008. -B.14.

## Hamza undoshi

«» hamza undoshi tovush psychalarida paydo bo‘ladigan jarangsiz shovqinli portlovchi undosh. Uning hosil bo‘lish usuli quyidagicha: tovush paychalari o‘zaro jipslashib, vujudga keltirgan juda qisqa to‘xtalish natijasida to‘silgan havoning sirtga intilish kuchidan yana ajralishadi. Portlab otilgan havo og’iz bo‘shlig’iga o‘tadi va shu asnoda engil tomoq qirilishini eslatuvchi tovush talaffuz qilinadi. Yumshoq tanglay ko‘tarilgan, burun bo‘shlig’iga o‘tish yo‘li yopiq. O‘zbek tilida bunday tovush yo‘q.

Masalan: *uZNUN* qulqoq, *mas’ULUN* mas’ul, *jā’A* kelmoq.

’ (hamza) tovushi yozuvda ↗ shaklida ifodalanadi. Hamza uchun ي و ا harflari tayanch vazifasini bajaradi.

So‘z boshida hamza uchun ↗ xizmat qiladi. Hamza fatxa yoki damma bilan kelsa ↗ ustiga, kasra bilan kelsa ↗ ostiga yoziladi.

أ - 'a ;      أ - ' u ;      !      -'i

Masalan, أب 'abun ota; أمّ 'ummun ona; ابن ibnun o‘g’il.

So‘z o‘rtasida kelgan hamza uchun ي و ا harflaridan biri tayanch vazifasini bajaradi. Hamza fatxa bilan harakatlangan bo‘lsa yoki fatxadan keyin kelgan bo‘lsa uning tayanchi ↗ bo‘ladi. Masalan: سأَلَ sa’ala so‘ramoq, مَمْوُلٌ ma’mülun kutilgan, فَرَأَ qar’a o‘qimoq, مَسْأَلَةً mas’alatun masala.

Hamza damma bilan harakatlangan bo‘lsa, yoki dammadan keyin kelsa, uning tayanchi ↗ bo‘ladi. Masalan: سؤال su’älun savol, مؤتمِر mu’tamarun konferensiya.

Hamza kasra bilan harakatlangan yoki dammadan keyin kelsa, uning tayanchi ↗ bo‘ladi. Biroq bunda ↗ nuqtasiz yoziladi. Masalan: مئاث mi’ätun yuzlab, سُئلٌ su’ila so‘ralgan.

Hamzadan oldin “ā” tovushi, keyin “a” tovushi mavjud bo‘lsa, hamza mustaqil yoziladi. Masalan, ساعل sā’ala (birgalashib so‘ramoq), قراءة qirā’atun (o‘qish).

So‘z oxirida kelgan hamza imlosi quyidagicha:

Agar hamza sukunli harfdan yoki cho‘ziq unlidan keyin kelgan bo‘lsa, u mustaqil holda yoziladi. Masalan: إِنْشَاءُ juz’un qism, ‘insh āun.

Hamza qisqa unli tovushdan keyin kelgan bo'lsa, o'sha unliga mos harf ustiga yoziladi. Masalan, قَرَا qara'a o'qimoq, قُرِئَ quri'a o'qilmoq, جَرُوا jaru'a jur'atli bo'lmoq.

Agar hamzadan keyin “ā” tovushi, hamzadan oldin “a” tovushi kelgan bo'lsa, yoki hamzadan oldin unli tovush bo'lmasa, hamzadan keyingi “ā” tovushini ifodalash uchun maddali alif yoziladi. Masalan: آخرُ 'āxirun oxirgi. Madda so'z oxirida ham kelishi mumkin. Masalan, مَا حَذَّ ma'āxizu manbalar.

Boshqa qo'shimcha belgilardan farqli o'laroq madda belgisi tushirib qoldirmay, hamisha yoziladi<sup>8</sup>.

### Vaslali hamza

Arab tilida so'z boshida kelgan ikki ketma-ket undosh harflardan oldin talaffuz qilinmaydigan (vaslali) hamza o'rin oladi. Vaslali hamza yozuvda vasla belgisi “ءِـ” bilan alif (ا) harfi yordamida ifodalanadi va u o'zi bilan qisqa unlilarning biri orqali harakatlanadi, masalan:

أَبْنُونْ → سُمْ ism  
أَبْنَاءُ – ayol, اسْمُ – o'g'il

Agar vaslali hamza bilan boshlangan so'z gapning o'rtasida yoki oxirida turgan bo'lsa, quyidagi holatlar bo'lishi mumkin:

Vaslali hamza bilan boshlangan so'zdan oldingi so'z qisqa unli bilan tugagan bo'lsa, vaslali hamza o'qilmaydi va ikkala so'z qo'shib o'qiladi. Masalan:

فَلَّا كُتُبْ qāla-ktub – “yoz” dedi

Vaslali hamza bilan boshlangan so'zdan oldingi so'z undosh tovush bilan tugagan bo'lsa, qat'iy hamzadan keyin qaysi unli kelgan bo'lsa, o'sha unli tovush talaffuz qilinadi. Masalan:

مَنْ أَبْنَهْ ma-nib-nu-hu kim uning o'g'li

Bunday hamza arabchada "هَمَزَةُ الْوَصْلِ" deyiladi. Talaffuz qilinadigan hamza esa, "هَمَزَةُ الْقَطْعِ" deyiladi<sup>9</sup>.

<sup>8</sup> Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.:2007. – B.25.

<sup>9</sup> Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.:2007. – B.29.

## **Savol va topshiriqlar**

1. harflarining to'rt xil ko'rinishini daftaringizga yozing va talaffuzini o'rganing.
2. Hamza undoshi haqidagi ma'lumotingizni umumlashtiring.
3. Qat'iy (o'qiladigan) hamza va uning imlo qoidalari va vaslali hamza qoidalalarini aytib bering.
4. Quyidagi so'z birikma va jumlalarini daftaringizga o'qing va yozing:

ضَرَبَ شَاكِرٌ Shokir urdi.  
ضَرِيْخُ كَبِيرٌ katta mavzoley  
طَائِرَةً ضَحَمَةً ulkan samolyot  
ظَرْفُ صَعْبٌ qiyin vaziyat  
فِلْمٌ عَجِيبٌ ajoyib film

5. Quyidagi yangi so'zlarni yod oling:

ضَرَبَ (i) urmoq  
ضَرِيْخُ mavzoley, maqbara  
طَائِرَةً samolyot  
طُولُّ uzunlik  
طُولَ النَّهَارِ kun bo'yli  
ظَرْفُ ko'p, 'p. vaziyat  
ظُهُرٌ tush payti, peshin  
عَجَائِبٌ ko'p, 'p. ajoyib  
عَرَبَةً vagon

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -T.: O'zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -T.: Nihol, 2010.
- 6.لزموه فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989 د.
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

## **6-mavzu. Aniqlik artikli. Shamsiy va qamariy harflar**

**Reja:**

1. “Al” aniqlik artikli haqida tushuncha.
2. Arab alifbosining 2 guruhga bo’linishi. Shamsiy va qamariy harflar.
3. “Al“ artiklidagi “l” tovushi talaffuzi.

**Tayanch iboralar:** Shamsiy, qamariy, al, artikl, talaffuz.

### **“Al” aniqlik artikli**

Arab tilida “al” aniqlik artikli mavjud bo’lib, u yagona artikl hisoblanadi. Agar gap oldindan ma’lum bo’lgan predmet yoki shaxs haqida bo’lsa, o’sha predmet yoki shaxsni bildirgan so’z aniq holatda hisoblanadi va u arab tilida ال artikli bilan boshlanadi hamda tabiiyki, oxiri tanvin qo’shimchasiz tugaydi.

كتاب (noma’lum) kitob,

Agar so’z gapiruvchi va tinglovchiga noma’lum bo’lgan predmet yoki shaxsni bildirsa, u noaniq holatda hisoblanadi va ال artiklisiz, tanvin qo’shimchasi bilan yoziladi. Masalan:

الكتاب – (aniq) kitob

Snuningdek, ال artikli kun so’ziga qo’shilganda, اليوم bugun ma’nosini anglatadi. Bu artikl yig’malma’noni ham anglatadi. Masalan: الإنسانُ insan, الإنسانية insoniyat, xalq.

Bundan tashqari dunyoda yagona bo’lgan predmetni ifodalovchi so’zlar har doim aniqlik artikli bilan ishlataladi. Masalan:

القمرُ – Quyosh, الأرضُ – Oy, الشمسُ – Yer

Arab tilidagi deyarli barcha otlarni yuqoridagi usul bilan aniq yoki noaniq holatda ifodalash mumkin. Lekin yana shunday so’zlar ham mavjudki, ular aniqlik artiklini qabul qilmaydi, biroq doim aniq holatda hisoblanadi. Bular: shaxs nomlari, geografik nomlar, kishilik va ko’rsatish olmoshlaridir<sup>10</sup>.

---

<sup>10</sup> Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.:2007. – В.42.

## Shamsiy va qamariy harflar

Arab alifbosidagi 28 harf ikki guruhga bo'linadi:

1. Qamariy harflar, ular 14 ta:

ا، ب، ج، ح، خ، ع، غ، ف، ق، ك، م، ه، و، ي

2. Shamsiy harflar, ular ham 14 ta:

ت، ث، د، ذ، ر، ط، س، ش، ص، ض، ز، ظ، ل، ن

### “Al“ artiklidagi “l” tovushi talaffuzi

“Al“ artiklidagi “l” tovushi ba'zan talaffuz qilinadi, ba'zan qilinmaydi va bu narsa so'zning birinchi harfiga bog'liq:

Agar so'z shamsiy harf bilan boshlangan bo'lsa, “l” tovushi talaffuz qilinmaydi. Uning hisobiga birinchi harf bo'lgan shamsiy harf ikkilantirib talaffuz qilinadi. Yozuvda bu harf ustiga “tashdid” harakati qo'yiladi. Qamariy harflardan oldin kelgan “l” da bunday o'zgarish sodir bo'lmaydi. Masalan:

الشَّمْسُ → أَلْشَمْسُ

الدَّرْسُ → أَلْدَرْسُ

Harakatlarni qo'yish lozim bo'lgan holatlarda shamsiy harflardan oldin kelgan «ال» artiklining «ل» harfidagi sukun yozilmaydi, undan keyingi harfga tashdid belgisi qo'yiladi:

الطَّالِبُ - الطَّالِبُ ؛ الدَّفَرُ - الدَّفَرُ

«ال» artiklining hamzasi – vaslali hamza. Uni qo'ish va yozishda vaslali hamzaga tegishli barcha qoidalarga rioya qilishdan tashqari quyidagilarni esda tutish lozim:

1. «ال» artiklidan oldin kelgan «من» (chiqish kelishigi - «-dan» ma'nosini ifodalaydigan predlog) qo'iladi:

مِنَ الْجَامِعَةِ → مِنْ الجَامِعَةِ universitetdan;

مِنَ الْكُتَّابِ → مِنْ الكُتَّابِ yozuvchilardan.

2. «ال» artikli bilan boshlangan so'zlarga «uchun», «-ga», «-niki» kabi ma'nolarni anglatuvchi «ـ» predlogi qo'shilsa, hamzaning tagligi bo'lgan ا(alif) ham tushib qoladi:

لِلْمَجَلَّةِ = لِ + المَجَلَّةُ (jurnalga);

لِلإِنْسَانِ = لِ + الإِنْسَانُ (inson uchun).

«—» predlogidan keyingi so‘z «لغة» (til), «لحّم» (go ‘sht) kabi «لـ» harfidan boshlanadigan so‘z bo‘lsa, artikelning «لـ» harfi ham tushib qoladi:

للّغة → لـ + اللّغة = الـ + لـ + لـ  
 للّحّم → لـ + اللّحّم = الـ + لـ + لـ  
 للّه → لـ + للـ = الـ + لـ + لـ

في الجامعة الجديدة - yangi universitetda;  
 من المدينة الجميلة - go ‘zal shahardan;  
 العالم المشهور - mashhur olimga;  
 بيت صنم - katta uy;  
 عمل حسن - yaxshi ish;  
 من لغة أجنبية - (bir) chet tilidan<sup>11</sup>.

### Savol va topshiriqlar:

- “Al” aniqlik artikli nima?
- Nima uchun arab harflari 2 turga bo’lingan?
- Shamsiy va qamariy harflarni aytib bering.
- “Al” artiklidagi “l” tovushi talaffuzi haqida nimalarni bilasiz?
- Quyidagi yangi so’zlarni “al” aniqlik artikli bilan birga yozing va so’zlarni yod oling:

مستقل	mustaqil
مشتق	mushtoq
احتياج	ehtiyoj
استبدال	almashtirish
استخدام	ishlatish, ( <i>n. dandir</i> ) foydalanish
آلاف	ko ‘p. ming
إنتاج	mahsulot
بدل	almashtiriladigan narsa
معا	birgalikda
مقبرة	ko ‘p. maqbara, qabr
مكتوب	yozilgan

### Foydalanilgan adabiyotlar:

---

<sup>11</sup> Абдужабборов А. Араб тили. - Т., 2005. -Б.25.

- 1.Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -Т.: O'zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.لزمود فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القارة ، 1989 د.
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

## **2-MODUL. SO'Z TURKUMLARI. ISMNING TURLARI VA UNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI**

### **1-mavzu. Ot so‘z turkumi**

Reja:

1. So‘z turkumlari.
2. Arab tilida otlarning turlari.
3. Turdosh otlar va atoqli otlar.

**Tayanch iboralar:** *Suz turkumlari, ot turlari, turdosh otlar, atoqli otlar.*

#### **So‘z turkumlari**

Arab tilida so’zlar uch turkumga bo’linadi:

1. الاسم - 'al'ismu – ism. Bu turkumga ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe'lning harakat nomi (masdarlar), sifatdosh kabi funksional formalari, ayrim ko'makchilar, modal so'zlar kiradi.
2. الفعل - 'alfi 'lu – fe'l. Bu turkumga fe'lning barcha zamonlari, mayllari, nisbatlari, bo'lishli va bo'lishsiz shakllari kiradi.
3. الحرف - 'alx.arfu – harf. Bu turkumga aniqlik artikli, predloglar, turli xil yuklamalar, umuman yordamchi so'zlar kiradi.

Arab tilidagi ot kimni yoki nimani anglatib kelganiga qarab oqil va g‘ayri oqilga bo’linadi. Oqilni anglatuvchi otlarga odamni anglatgan otlar, g‘ayri oqilga esa odamdan boshqasini anglatgan otlar kiradi. Masalan:

oqil	فاطمة، مهندس، طبيب، كريم
g‘ayri oqil	كلب، ثعلب، طاولة، كرسي

Otning jinsi o‘zgarmas bo‘lib u yo muzakkarr yoki muannas jinsda bo‘ladi:

muzakkarr	تين، جبل، بيت، حائط
muannas	غرفة، سيارة، بذلة، جريدة

Otlar ma’no jixatidan ikki turga bo‘linadi:

- 1.Turdosh otlar.
- 2.Atoqli otlar.

**Turdosh otlar.** Bir turdag'i predmetlarning, hodisalarning umumlashtiruvchi nomi turdosh ot deyiladi. Masalan: درس شارع،

معلم، منزل kabi. Turdosh otlar atoqli otlarga qaraganda ko‘p miqdorni tashkil qiladi.

Arab tilida turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Aniq (konkret) otlar. Aniq otlar bevosita predmetni ifoda etadi: سیوه‌دون siyohdon, طاس satr, سطرا قرطاس bir varaq qog‘oz, سنه يیسىه il kabi.

2. Mavhum (abstrakt) otlar. Mavhum (abstrakt) otlar ish-harakat, sifat yoki holat haqidagi mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Mavhum otlar so‘z oxiriga يىه – qo’shimchasini qo’shish bilan hosil qilinadi. Masalan:

إنسانیّة inson – إنسان insoniylik  
قابلیّة qabul qiluvchi – قابل qobiliyat

**Atoqli otlar.** Atoqli ot yakka shaxs, geografik nomlar, jonivor yoki narsaning nomlarini bildirgan otdir. Arab tiliga xos bo‘lgan kishining laqabi va kunyasi kabilar ham atoqli otga mansubdir. Masalan:

حسن، زيد، فاطمة، عائشة
الدب ، الثعلب ، الذئب ، الأرنب
خزانة ، منزل ، غرفة ، شارع ، قلم
دمشق ، طشقند ، مصر ، جزائر
أبو بكر ، أبو جهل ، أبو هنيفة

O’zbek tilida bo’lgani kabi arab tilida ham **kichraytma otlar** mavjud bo’lib, ular erkalash, kichraytirish ma’nosida qo’llanadi. Kichraytma otlar

- 1) uch o’zakli otlardan **فَعِيلٌ** qolipidan, **كُلْبٌ** **kuchuk** – **گلیب** **kuchukcha**
- 2) to’rt o’zakli otlardan **فَعِيلٌ** qolipidan hosil qilinadi. **تَعْلَبٌ** **tulki** – **تَعْلِبٌ** **tulkicha**
- 3) Besh o’zakli otlardan to’rt o’zakli kichraytma otlar hosil qilinadi va bunda oxirgi o’zak harf tushirib qoldiriladi: **سَفَرْجَلٌ** **behi** – **سُفَيْرَجٌ** **behicha**
- 4) Birinchi bo’g’inda cho’ziq unli mavjud bo’lgan so’zlardan vaznida kichraytma otlar hosil bo’ladi. Masalan: **عُصْفُورٌ** **chumchuq** – **عصيفير** **chumchuqcha**
- 5) qo’shimchasida tugaydigan erkaklar ismidan kichraytma otlar yasalganida mazkur qo’shimcha saqlanadi.

(erkalar ismi) سُلَيْمَان (kichraytma erkaklar ismi)

6) Kichraytma ot shakllari ayrim predlog, deb atalmish so‘zlarda ham qo’llaniladi va shu predloglardagi ma’noning oz yoki qisqa ekanligiga ishora qiladi.

Masalan:

قَبْلُ oldin - قَبْلَ bir oz oldin  
بَعْدَ keyin - بَعْدَ bir oz keyin

Arab tilida **dona otlar** ham mavjud bo‘lib, bir xil predmetlar ichidan bir donasini bildiradi va ular ot oxiriga "ة" harfini qo’shish bilan hosil qilinadi.

حَمَامٌ kaptarlar - حَمَامَةٌ kaptar  
تِبْنَةٌ somon - تِبْنَةٌ somonning bir cho’pi  
ذَهَبٌ tilla - ذَهَبَةٌ tilla bo ’lakchasi  
تقاھ - олма - бир дона олма<sup>12</sup>

### Savol va topshiriqlar:

1. Arab tilida otlar necha turga bo’linadi?
2. Turdosh otlar va ularga oid so‘zlarga misollar keltiring.
3. Yakka shaxs ismi, geografik joy nomi, narsa yoki jonivorning nomi qaysi ot turkumiga kiradi?
4. Quyidagi yangi so‘zlarni o’qing, yozing, yod oling:

حِكَايَةٌ hikoya  
حَوَارٌ suhbat, dialog  
سِتٌّ olti  
سِرْ سِرْ ko ‘p. أَسْرَارٌ sir, yashirin narsa  
خَصْبٌ unumdor, serhosil  
اسْتِقلَالٌ istiqlol  
خَصْبٌ unumdor, serhosil  
شَبَابَاتٌ ko ‘p. شَبَابِيَّاتٌ deraza  
شُكْرًا جَزِيلًا katta rahmat  
صَحِيحٌ ko ‘p. أَصِحَّاءٌ sog‘, sog‘lom  
صُعُوبَةٌ qiyinlik, qiyinchilik  
ضَيْطٌ aniqlik

<sup>12</sup> Abdujabborov A. Arab tili. - T., 2005.-B.34.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -Т.: O'zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.لزموه فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القارة ، د. 1989
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

### **2-mavzu. Sifat. Tub, nisbiy va rangni anglatuvchi sifatlar**

Reja:

- 1.Sifat. Arab tilida sifatlarning turlarga bolinishi.
- 2.Tub sifat va uning xususiyatlari.
- 3.Nisbiy sifatga oid so‘zlamning ma’no xususiyatlari.

**Tayanch iboralar:** *sifat, sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja*

Arab tilida o’zbek tilidagiday predmetning shaklini, hajmini rangini, muzmunini bildirib, uni darajalab ko’rsata oladigan so’zlar sifatlar deyiladi. Ular **فعلٌ ، فعلٌ** vaznlardan yasaladi. Masalan: *ko’p, keng, yashil* kabi.

Sifatlar 2 turga bo’linadi: Tub hamda nisbiy sifatlar.

1. **Tub sifatlar.** Туб сифатлар том маъноси билан белги тушунчасини ифодалайди. Белги кишининг сезги аъзолари орқали сезилган, фахм-идроқи билан тасаввур этилган конкрет ва абстракт элементлардир. Mac., қизил, аччиқ, совуқ каби. Араб тилида туб сифаталар ham otlar kabi muzakkarr va muannas jinslarga, birlik, ikkilik, ko’plik sonlarga ega. Sifatdagi birlik, ikkilik sonlarning hosil bo’lish usuli otlardan farq qilmaydi.

Arab tilida sifatlarning 20 dan ortiq vazni mavjud. Shulardan quyidagi o'ntasi eng ko'p uchraydigan vaznlardir:

№	vaznlar	misollar
1	فَعِيلٌ	كَرِيمٌ <i>saxiy</i>
2	أَفْعُلُ	أَحْمَرٌ <i>qizil</i>
3	فَعْلُ	سَهْلٌ <i>oson</i>
4	فُعْلُ	صُلْبٌ <i>qattiq</i>
5	فَعَلٌ	حَسَنٌ <i>yaxshi, chiroylı</i>
6	فَعِلٌ	فَرِحٌ <i>shodon, quvnoq</i>
7	فَاعِلٌ	نَاعِمٌ <i>yumshoq, nafis</i>
8	فَيْعِيلٌ	طَيِّبٌ <i>yaxshi</i>
9	فَعُولٌ	غَيْوَرٌ <i>qizg'anchiq</i>
10	فَعْلَانٌ	جَوْعَانٌ <i>och</i>

Sifatning muannas jinsi muzakkar jins formasiga —  
— qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Bu vaznlar ichida eng  
ko'p uchraydigani فَعِيلٌ va فَعِلٌ vaznlaridir. Qolganlari nisbatan kamroq  
uchraydi. Gapda turli gap bo'lagi bo'lib kelgan sifatlar haqiqiy  
xususiyatini yo'qotib, otlashib ham keladi. Masalan: أَمِينٌ *ishonchli*<sup>13</sup>.

Bunday so'zlarga shaxs nomlari ham kiradi:

عباس، جبار، غفور، قادر، جميل، محمود، كاملة، كامل.

Tub sifatlar 3 xil darajaga ega: oddiy, qiyosiy, orttirma daraja.

1.Oddiy daraja sifatlar.

Masalan:

قریب حسن کبیر

<sup>13</sup> Халидов Б. Учебник арабского языка. -Т.: Ўқитувчи, -С.156-157.

2. Qiyosiy daraja sifat. Qiyosiy daraja sifat uch undoshli fe'lni **أَفْعُلُ** formasiga tushirish va **مِنْ** predlogini orttirish orqali hosil qilinadi. Masalan:

**الكتابُ أَكْبَرُ مِنِّيَّةً** *Kitob jurnaldan kattaroq*

Ko'rinib turibdiki sifatning qiyosiy darajasi o'zbek tiliga «roq» qo'shimchasi bilan tarjima qilinadi.

3. Orttirma daraja.

Orttirma daraja o'z navbatida 2 ga bo'linadi: a) mutloq orttirma daraja; b) qiyosiy orttirma daraja.

Mutloq orttirma daraja. Mutloq orttirma daraja va qiyosiy orttirma daraja ham افعُل vaznidagi bo'lib, mutloq orttirma daraja moslashgan aniqlovchilarday bo'lib keladi., shuning uchun ham u sifatlanmish bilan to'la moslashadi (holatda, kelishikda, jinsda va hokazoda) va o'zbek tilida «...eng...,» deb tarjima qilinadi<sup>14</sup>.

jins	<b>birlik</b>	<b>ikkilik</b>	<b>ko'plik</b>
Mz	أَفْعُلُ	أَفْعَلَانٌ	أَفْاعِلُ
mn	فَعْلِي	فَعْلِيَانٍ	فَعْلِيَاتٌ

Misol:

الرَّجُلُ الْأَحْسَنُ	<i>eng chiroysi erkak</i>
الْمَرْأَةُ الْحُسْنَى	<i>eng chiroysi ayol</i>
الرِّجَالُ الْأَحْسَانُ	<i>eng chiroysi erkaklar</i>
النِّسَاءُ الْحُسْنَيَاتُ	<i>eng chiroysi ayollar</i>

Orttirma darajadagi sifat izofaning birinchi bo'lagi bo'lib kelganida, jinsda o'zgarmay, أفعُل shaklini oladi. Undan keyin kelayotgan so'z ko'plikda , qaratqich kelishigida keladi. Masalan:

أَحْسَنُ الرِّجَالِ *eng chiroyli kishi*  
أَحْسَنُ النِّسَاءِ *eng chiroyli ayol*<sup>15</sup>

**2. Nisbiy sifat.** Nisbiy sifat predmetning belgisini boshqa predmetga yoki tushunchaga nisbatan bildiradi. U ko'pincha belgisi

<sup>14</sup>Arab tili fanidan 22.05.00.-Sharq filologiyasi bakalavriatusining I-IV kurslari uchun ma’ruza matnlari. -T.:2008. -B.14.

<sup>15</sup> Халидов Б. Учебник арабского языка. -Т.: Ўқитувчи. -С.156-157.

aniqlab kelayotgan aniqlanmishning ishlangan materialini, kelib chiqqan joyini, biror predmetga mansubligini bildiradi.

Nisbiy sifat ham asliy sifat kabi muzakkar va muannas shakllariga ega.

Nisbiy sifatning muzakkari asosan ot oxiridagi *-un* (tanvin damma) o'rniga ی - *-iyun* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Muannas nisbiy sifat esa, ko'pchilik sifat kabi so'z oxiriga ی - *-iyatun* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Masalan:

**ذهبی** *zahabun* (tilla) so'zidan - > **ذهبی** *zahabiyyun* - > *zahabiyyatun* - tilladan (yasalgan)

ا yoki ى harfi bilan tugagan otlardan nisbiy sifat hosil bo'lganida ي - qo'shimchasiдан oldin ا yoki ى harflari و ga aylanadi. Masalan:

دُنْيَا - dunyo - دُنْيَوْيَّة، دُنْيَوْيَّ > - dunyoviy,

"Ta marbuta" bilan tugagan so'zlardan nisbiy sifat hosil bo'lganida, mazkur harf tushib qoladi. Masalan:

سیاسیة - سیاسي - siyosiy

Ikki o'zakli otlardan nisbiy sifat hosil qilinganda, و harfi orttiriladi. Masalan:

سنويّة، سنويّ > - سنة yillik

## Savol va topshiriqlar:

1. Sifat deb nimaga aytildi?
2. Sifat necha turga bo'linadi?
3. Arab tilida sifat darajalari qanday bo'ladi?
4. Sifat darajalari haqida gapirib bering va misollar keltiring?
5. Quyidagi sifatlarni o'qing, yozing, yod oling.

طويل	<i>t.avūlun</i>	uzun
أحمر (حمراء)	<i>'ax.maru</i>	qizil
أصفر (صفراء)	<i>'as.faru</i>	sariq
عربي	<i>'arabiyyun</i>	arab
إنجليزي	<i>'injiliziyyun</i>	ingliz
فارسي	<i>fārisiyyun</i>	fors
عтик	<i>'aftiqun</i>	eski

منیر	<i>munīrun</i>	yorug'
Rossi	<i>rūsiyyun</i>	rus
شهری	<i>shahriyyun</i>	oylik
يومی	<i>yavmiyyun</i>	kunlik
ذکی	<i>zakiyyun</i>	oqil
ازبکی	<i>'zbekiyyun</i>	o'zbek
افریقی	<i>'ifriqiyyun</i>	afrikalik
کثیر	<i>kasīrun</i>	ko'p
عظیم	<i>'azītun</i>	ulkhan

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- Talabov E. Arab tili. -Т.: O'zbekiston, 1993.
- Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- د. لزمود فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989
- Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.
- Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

### 3-mavzu. Olmoshlar

#### Reja:

- Arab tilida olmoshlarning turlari. Kishilik olmoshlari. Ko'rsatish olmoshlari. So'roq olmoshlari.
- Birikma olmoshlari. Ot bilan keluvchi birikma olmoshlarining vazifalari.
- Ajratuvchi yoki ta'kidlovchi olmoshning gapdagi vazifasi va qo'llanilishi.

**Tayanch iboralar:** *olmosh, kishili kolmoshlari, birikma olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari, so'roq olmoshlari.*

Arab tilida olmoshlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Kishilik olmoshlari.
- Ko'rsatish olmoshlari.

3. So'roq olmoshlari.
4. Birikma olmoshlari.
5. Ajratuvchi yoki ta'kidlovchi olmoshlari.

## KISHILIK OLMOSHLARI

shaxs	jins	birlik	ikkilik	ko'plik
III	muzakkar	هو huva u هي hiya u	ما humā u ikkalovi	هم hum ular هن hunna ular
	muannas			
II	muzakkar	أنت 'anta sen أنت 'anti sen	أنتما 'antumā siz ikkalovingiz	أنتم 'antum sizlar أنتن 'antunna sizlar
	muannas			
I	muzakkar	أنا 'anā men	-----	نحن nax.nu bizlar
	muannas			

## KO'RSATISH OLMOSHLARI

Yaqin predmetlarga nisbatan ko'rsatish olmoshlari quyidagilar:

Jins	birlik	ikkilik	ko'plik
muzakkar	ذا zā bu	ذان zāni bu ikkisi	أولاد 'ulā'i bular
muannas	ذي zū, ذه zīhi bu تا tā, ته tīhi	تان tāni bu ikkisi	

Uzoq predmetlarga nisbatan ko'rsatish olmoshlari quyidagilar:

Jins	birlik	ikkilik	ko'plik
muzakkar	ذاك zāka ذلك zālika u	ذانك zānika u ikkisi	أولاد 'ulā'ika ular
muannas	تاك tāka تلك tilka u	تانك tānika u ikkisi	

Odatda yaqin predmetlarga nisbatan ko'rsatish olmoshlariga **هـ hā** old qo'shimchasi qo'shib qo'llaniladi:

jins	birlik	ikkilik	ko'plik
muzakkar	هـ <i>hāzā</i> bu	هـ ان <i>hāzāni</i> bu ikkisi	هـ لاء <i>hā'ulā'i</i> bular
muannas	هـ هـ <i>hāzīhi</i> bu	هـ اتـان <i>hātāni</i> bu ikkisi	

## SO'ROQ OLMOSSHARI

Arab tilida so'roq olmoshlari so'roq gaplarda qo'llaniladi. So'roq gaplar ohang yordamida ifodalanishi bilan birga (buni biz so'roq gaplar mavzuida ham tushuntirib o'tamiz) so'roq olmoshlari orqali ham tuziladi:

b) مـنْ *man* kim?      ما *mā* nima? so'roq olmoshlari  
- منْ أنتـ؟ Kim sen?      ما هذهِ؟ ما هذا؟ - Bu nima?

## BIRIKMA OLMOSSHAR

Kishilik olmoshlarining ikkinchi turi birikma olmoshlar deyiladi va otga, predloglarga, fe'lga va yuklamalarga qo'shilib kelishi mumkin.

Birikma olmoshlar quyidagi shaklga ega:

shaxs	jins	birlik	ikkilik	ko'plik
		<b>birikma olmosh</b>	<b>birikma olmosh</b>	<b>birikma olmosh</b>
III	<b>mz</b>	هـ -	هـما -	هـم -
	<b>mn</b>	هـ -	هـما -	هـن -
II	<b>mz</b>	كـ -	كـما -	كـم -
	<b>mn</b>	كـ -	كـما -	كـن -
I	<b>mz,</b> <b>mn</b>	يـ -		نا -

Ot so'z turkumiga birikuvchi olmoshlar odatda egalikni bildiradi va o'zbek tilida egalik afkslari bajargan vazifani bajaradi (-im, - ing, - i, - si). Boshqacha aytganda, qaratqich kelishigida kelgan kishilik olmoshlari bilan vazifadoshdir (mening ...im, sening ...ing, uning ...si (i) va h.). Masalan:

بیتہ - *uning uyi*  
قلمک – *sening qalaming*

### **Birikma olmoshlarining otlar bilan birikuvi va turlanishi namunasi**

kelishik	birlik		ikkilik		ko'plik	
	misol	qo'shimcha	misol	qo'shimcha	misol	qo'shimcha
Bosh k.	مَعْلِمَك	ُ- -u	مَعْلِمَك	اَ- -ā	مَعْلُومُك	ُ و - -ŷ
Qar.k.	مَعْلِمَك	- -i	مَعْلِمَيْك	َ- -ay	مَعْلِمَيْك	ِي - -ū
Tush.k.	مَعْلِمَك	ُ- -a	]			

I shaxs birlik olmoshi qo'shilganida, ot har uch kelishikda bir xil ko'rinishda bo'ladi. Masalan:

kelishik	birlik	ikkilik	ko'plik
Bosh k.	مُعْلِمِي	مُعْلِمَاء	مُعْلِمَوَى
Q-T k.		مُعْلِمَيْ	مُعْلِمَيْ

Ot qaratqich kelishigida kelganida yoki “- ay” qo'shimchasi bilan tugaganida, III shaxs birikma olmoshlaridagi “u” tovushi “i” tovushiga o'zgaradi:

كتابٍهُنَّ، كتابٍهُمْ، كتابٍهُما، كتابٍهِ

“Ta marbuta” harfi bilan tugagan otlarga bu olmoshlar qo'shilganida, u “alif”ga o'zgaradi. Masalan:

جريدة → *uning gazetasi*

ساعة → *uning soati*

## AJRATUVCHI YOKI TA'KIDLOVCHI OLMOSH

Ot kesimli gaplarning kesimi ba'zan aniq holatdagi so'zdan iborat bo'ladi. Qiyoslang: Bu hayotdir -> *Bu* (siz bilan menga ma'lum bo'lgan) hayotdir. Buni o'zbek tilida quyidagi ibora yordamida ifodalash mumkin: "Hayot degani mana shu".

Birinchi variant "Bu hayotdir" ilgari o'rganganimiz umumiy qoida asosida shakllanadi: هذه حياة

Ikkinci variantdagi iborani ifodalash uchun gapning egasi bilan kesimi o'rtasiga ularga jinsda va sonda mos bo'lgan kishilik olmoshi qo'yiladi hamda shu kishilik olmoshi **ajratish olmoshi** deb yuritiladi. Masalan:

هذه هي الحياة - Hayot degani mana shu<sup>16</sup>.

### Savol va topshiriqlar:

1. Arab tilida olmoshlarning necha xil turi bor?
2. Birikma olmoshlari gapda nimalar bilan birikadi?
3. Ajratuvchi yoki ta'kidlovchi olmoshning gapdagi vazifasi nimadan iborat?
4. Quyidagi jumlalarni yozing, o'zbek tiliga tarjima qiling:

هذا كتابٌ. هذه مسطرةٌ. أين السبورة؟ أين المحرر؟ خذ القلم. هات قلم الحبر. خذ الريشة. هذا ورق. ما هذه؟ من أنت؟ أنت أوزبكيٌ. هي عربيةٌ. الورقة بيضاءٌ. هذا هو الحائط. دفتركم مم هنا. إفريقيون.

5. Yangi so'zlarni yod oling:

<sup>16</sup> Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.: Ўқитувчи, -С.48.

مسطّرة	-chizg'ich
أين	- qayerda
سّبُورَة	- doska
مُحْبَرَة	-siyohdon
خُذْ	- ol (b.m)
ريشَة	- pero
أوزبَكِي	- o'zbek
عَرَبِيَّة	- arab
بيضاءُ	- oq
حائطُ	- devor
هُنَا	- bu yerda
إفريقيُّ	- afrikalik

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -Т.: 0'zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.لزمود فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. III. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

## **4-mavzu. So‘z o‘zagi. O‘zak undoshlar. Shakl yasovchi undoshlar**

### **Reja:**

1. Arabcha so‘z o‘zagi.
2. O‘zak tashkil qiluvchi undoshlar ekanligi.
3. Noo‘zak harflar va ularning qollanilishi.

**Tayanch iboralar:** *o‘zak, hamzali o‘zak, negiz, noto‘qri o‘zak, o‘zak bo‘lmagan undosh, to‘qri o‘zak, umumiy o‘zak.*

Arab tilidagi so‘zlarning o‘zagi uning skletini tashkil etib faqatgina undosh tovushlardan tuziladi. So‘z tarkibidagi unli tovushlar o‘zakning ma’nosini o‘zgartiradi va yangi so‘z yasalishini ta’minlaydi. So‘z strukturasini o‘zgarishi va tovushlarning almashish hodisalari arab morfologiyasining xarkaterli xususiyatidir. Bu so‘zlarning forma va konkret leksik ma’nolari farqlansa ham ular o‘zaro umumiy o‘zakka ega, ular asosiy ma’no bilan boqlanadilar. Arab tilida o‘zak aksariyat holatda 3 undosh tovushdan iborat bo‘ladi. **ڪاتب ، كتاب ، حَفْل ، فَم ، سَفِرْجَل** Bundan tashqari 2-4-5 o‘zakli so‘zlar ham mavjud.

- a) fe’lning 3 ta o‘zagi 3 turli undoshdan tashkil topgan bo’lsa “to‘qri o‘zak” deyiladi: **كتاب ، حَفْل ، شَرَب**
- b) agar o‘zak tarkibida 2 ta bir xil undosh bo’lsa «ikkilangan o‘zak» deyiladi: **ظَنَّ ، ضَلَّ**
- v) agar o‘zak tarkibida hamza bo’lsa hamzali o‘zak deyiladi: **أَخَذَ**
- g) agar o‘zak tarkibida **ي و ا** harflari bo’lsa «noto‘qri o‘zak» deyiladi: **نسَيَ**

So‘z o‘zak harflardan tashqari o‘z tarkibida o‘zak bo‘lmagan undoshlarni ham saqlaydi. Bunday undoshlar 10 ta. Ularni bir jumлага jamlab, yodda saqlash maqsadida **اليوْمَ تَسَاءَلَ** “bugun sen uni unutasan” mazmunidagi jumla tuzilgan. Bunday undoshlar fe’llarga yoki boshlanq’ich so‘zlarga qo’shilib, yangi so‘zlar yasaydi. M: **(فَاعِلٌ) - كَاتِبٌ - ( فعل )**; **كتاب**

Arab filologlari so‘zlarning turli morfologik formalarini sistemalash-tirish ularning turlariga umumiy nom berish maqsadida qolip sifatida faala o‘zagidan

foydalilaniladi. Istalgan so'zning o'zak harflari ( فعل ) qolipidagi o'zak harflar bilan almashtirilib o'zak bo'limgan undoshlar va harakatlar o'zgarishsiz qoldiriladi.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Arabcha so'z o'zagi qanday harflardan iborat?
2. O'zak tashkil qiluvchi undoshlar deb nimani tushunasiz?
3. Noo'zak harflar va ularning qollanilishi haqida so'zlab bering.
4. Quyidagi so'zlarning o'zagini toping:

زوج ريح زميل دراسة دكتور دلو دهليز ذهب رأس رجل رحلة

5. Quyidagi gaplarni o'qing va tarjima qilishga harakat qiling:

أنا مشغول بدراسة. الدكتور عالم. أخذت دلواً. الدهليز نظيف. يالمني رأسي.  
الرجل نحيف. أحب رحلة. زميل جميل. زوجك ثمين. الريح شديدة.

6. Quyidagi yangi so'zlarni yod oling :

دِرَاسَةٌ	o'rganish
دُكْتُورٌ	doktor
دَلْوٌ	chelak
دِهْلِيزٌ	koridor
ذَهَبٌ	oltin
رَأْسٌ	bosh
رَجُلٌ	erkak kishi
رِحْلَةٌ	safar, sayohat
رِيحٌ	shamol
زَمِيلٌ	hamkasaba
زَوْجٌ	er

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.

- 4.Talabov E. Arab tili. -T.: O'zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -T.: Nihol, 2010.
- 6.1989 د. لزمود فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ،
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

## 5-mavzu. So'z vaznlari

### Reja:

1. Arab tilidagi so'zlarning xilma-xil shakllarini bir tartibga solish.
2. Arab tilida vazn, ya'ni qoliplarning mavjudligi.
3. Uch o'zakli fe'lllar vaznining yasalishi.

**Tayanch iboralar:** *vazn , o'zak , shakl , model , negiz.*

Har bir grammatik kategoriya arab tilida o'zining vazn deb atalmish muayyan shakli – modeliga ega. Arab tilshunoslari vaznga asos qilib ف، ع، ل harflarini olishgan. Bunda ف harfi birinchi o'zak undoshni, ع harfi ikkinchi o'zak undoshni, ل harfi esa uchinchi o'zak undoshni ifodalaydi. Masalan: كِتَابъ yozmoq so'zi ، فَعَلَ kitob so'zi esa فِعْلٌ vazniga tushadi.

Agar so'z to'rt yoki besh undoshli o'zakdan iborat bo'lsa, to'rtinchchi va beshinchchi undoshlarni ifodalash uchun ل harfi orttiriladi.

Masalan: تَرْجِمَةً → جَهْرَمْ شَفَاعَةً

### Savol va topshiriqlar:

1. Arab tilidagi so'zlarning xilma-xil shakllarini bir tartibga solish deganda nimani tushunasiz?
2. Arab tilida vazn, ya'ni qoliplar nima degani?
3. Uch o'zakli fe'lllar vaznining yasalishini tushuntiring.
4. Quyidagi sўzlarning vaznini aniklaning:

- |   |   |
|---|---|
| 1) حُكَّامٌ، مَحْكَمَةٌ، مَحْكُومٌ، حُكْمٌ    | 3) مُحَمَّدٌ، أَحْمَدٌ، حَمْدٌ، حَمِيدٌ |
| 2) إِكْتِمَالٌ، تَكْمِيلٌ، مُكَمَّلٌ، كَامِلٌ | 4) قَاعِدٌ، مَقَاعِدٌ، قَاعِدَةٌ        |

5. Quyidagi o‘zaklardan berilgan vaznlar bo‘yicha so‘zlar yasang:

فَعِيلٌ: كثُر، كَبِير، صَغِير، جَمْل؛  
مَفْعُولٌ: كَتَب، قَرَأ، حَمَد، ضَرَب؛  
يَفْتَحُلُّ: كَسَب، قَطَع، جَمَع، رَزْق؛  
مُسْتَفْعِلٌ: قَبْل، خَرْج، حَكْم، نَشْر؛  
يُفَعِّلُ: وَسُوس، تَرْجَمَ، دَحْرَج، زَلْزَل.

6. Quyidagi iboralarni o‘qing va yod oling:

- السلام عليكم يا أستاذ!  
- وعليكم السلام يا نبيلاً!  
- أرجو معاذراً، يا أستاذ، تأخرت قليلاً.

- Kechirasiz, ustoz, biroz kech qoldim.

- خير؟

- Tinchlikmi?

- خيراً، الحمد لله. تعطلت الحافلة في الطريق. أتسمح لي بالدخول؟

-Tinchlik, xudoga shukur. Yo 'lda avtobus buzilib qoldi. Kirishga ruxsat berasizmi?

- لا بأس. تفضل، ادخل.

-Щечқиси yo 'q. Marhamat, kir.

- شُكْرًا، يا أستاذ!

-Rahmat, ustoz!

- عفوا، يا نبيلي.

-Arzimaydi, qizginam<sup>17</sup>.

Foydalaniman adabiyotlar:

1.Баранов X. Арабско-русский словарь. -М.,1985.

2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997

3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.

4.Talabov E. Arab tili. -Т.: 0’zbekiston, 1993.

5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.

6.لزمود فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989

<sup>17</sup> Abdujabborov A. Arab tili. - Т.: 2005, - B.50.

7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.

8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

## 6-mavzu. Lug‘at bilan ishlash

**Reja:**

1. Arab tilida lug‘at bilan ishlashda so‘zning o‘zagini aniqlanishi.
2. So‘zning o‘zagini aniqlash orqali so‘zning ma’nosini topish.

**Tayanch iboralar:** *lug‘at, o‘zak, hamzali o‘zak, noto‘qri o‘zak, to‘qri o‘zak, umumiy o‘zak.*

Yuqoridagi darslarda ko‘rib o’tganimizdek, so‘z tarkibidagi harflarni o‘zak

va noo‘zaklarga ajratish arabcha lug‘at bilan ishlashni ancha osonlashtiradi. Lug‘atlarda alifbo tartibida o‘zak harflar xonalarga ajratilgan.Uning ostida arab tilida fe’llarning “infinitiv” shakli bo‘lmaganligi bois uch o‘zakli fe’llarning o’tgan zamon, 3-shaxs, birlik, muzakkarr jinsi beriladi. Shundan so‘ng undan hosil bo‘ladigan so‘zlar qatori beriladi. Masalan, مَكْتُبٌ , مَكْتَبٌ kabi so‘zlarni tabiiyki، کتب xonasidan qidirish lozim bo‘ladi. Bularning boshida yuqorida ta’kidlaganimizdek , uch o‘zakli fe’lning o’tgan zamon, 3-shaxs, birlik, muzakkarr jinsi, ya’ni کتب fe’li turadi.

Demak, lug‘atlar asosan o‘zak asosida tuzililadi. Ularda bir o‘zakka oid bo‘lgan so‘zlar bir joyda beriladi. Bunday lug‘at bilan ishlashda so‘zning tarjimasini bilish uchun avval uning o‘zagini aniqlash kerak. Ammo bu narsaga ko‘p o‘qib, o‘rganib erishiladi. Agar o‘quvchiga bir o‘zakka oid bir necha so‘zlar ma’lum bo‘lsa, ularning o‘zagini topish osonroq bo‘ladi.

Masalan، درس، مَدْرَسَةٌ، تَدْرِيسٌ، مُدَرِّسٌ so‘zleri «درس» o‘zagi asosida گلەم، مۇنۇش، مۇنۇشلىق، مۇنۇشلىقلىق، مۇنۇشلىقلىقلىق، تىكىلمەن، تىكىلمەنلىق، تىكىلمەنلىقلىق، تىكىلمەنلىقلىقلىق so‘zlarining o‘zagi esa «كلم» o‘zagi asosida hosil qilingan.

Har bir yangi so‘zning ma’nosini topishda ularni lug‘atdan ilgari aniqlab olingan o‘zaklar bo‘yicha qidirish lozim. Ya’ni مَحْمُودٌ، أَحْمَدٌ، حَمِيدٌ، حَمَدٌ so‘zlarining ma’nolarini lug‘atlarda alifbo tartibida berilgan «ح»harfida boshlangan «حمد» o‘zagidan qidirish kerak bo‘ladi.

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Arab tilida lug‘at bilan ishslashda so‘zning o‘zagi qanday aniqlanishtiriladi?
2. So‘zning o‘zagini aniqlash lug‘atdan so‘zning ma’nosini topishda qanachalik ahamiyatliligini tushuntiring.
3. Quyidagi so‘zlar ma’nosini lug‘at yordamida toping:

بادن، بروز، بيان، جليل، جميل، شديد، صباح، سلام، صدقة، مأمول، مسألة، رئيس، عجيب، مقعد، نافذة، غرفة، مشهور .

4. Quyidagi so‘zlarning o‘zagini aniqlang:

- |   |   |
|---|---|
| 1) حُكَّامٌ، مَحْكُمَةٌ، مَحْكُومٌ، حُكْمٌ;   | 3) مُحَمَّدٌ، أَحْمَدُ، حَمْدٌ، حَمِيدٌ;      |
| 2) إِكْتِمَالٌ، تَكْمِيلٌ، مُكَمَّلٌ، كَامِلٌ | 4) قَاعِدَ، مَقَاعِدٌ، قَعْدَتْنَا، قَاعِدَةٌ |

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Баранов X. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -Т.: O’zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.لزموه فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. III. Учебник арабского языка. М., 1998.
- 8.Faruk Abu-Chacra. Arabic: An Essential Grammar. Routledge, 2007.

## 7-mavzu. Jins kategoriyasi

### Reja:

1. Arab tilida grammatic jins turlari.
2. Muzakkar va muannas jins haqida tushuncha.
3. Ularning jumla yasashda ishtiroki.

**Tayanch iboralar:** muzakkar jins, muannas jins, ta marbuta, ikki jinsga oid ismlar.

Arab tilida otlar ikki jinsga – muzakkar va muannasga ajraladi. Muannas jinsning grammatic belgisi so'z oxiridagi –atun, -atu qo'shimchasiidir. U yozuvda ئ (ta marbuta) harfi bilan ifodalanadi . Shuningdek, ئ- ئ' u qo'shimchasi hamda ئ- ئ' a qo'shimchasi bilan tugagan so'zlar, (agar ئ – ئ' harfi o'zak tarkibiga kirmasa,) muannas so'z hisoblanadi. Masalan:

جريدة	<i>jarīdatun</i>	gazeta
صحراء	<i>s.ax.rā'u</i>	sahro
بشرى	<i>bushrā</i>	xushxabar

Arab tilida shunday so'zlar mavjudki, ularning jinsi grammatic belgiga emas, shu so'zning mazmuniga qarab belgilanadi:

1. Muannaslik grammatic belgisi bo'limgan quyidagi so'zlar muannas hisoblanadi:
  - a) ayol kishini yoki ayollarning ismini bildiruvchi so'zlar: أُم 'ummun ona, عروسْ 'arūsun kelin, أختْ 'uxtun opa
  - b) tanadagi juft a'zolarni bildiruvchi so'zlar: يدْ yadun qo'l, رجلْ rijlun oyoq
  - v) aniqlik artiklini olmaydigan va tanvin qo'shimchasi bilan tugamaydigan geografik joy nomlari hamda xalq nomlari: بغداد bag 'dādu Bog'dod, مصر mis.ru Misr, روسْ 'ar-rūsu rus
  - g) shamol, olov, urush, quyosh kabi so'zlar: نار nārun olov, حربْ rīx.un shamol, شمسْ x.arbun urush, شام sun quyosh.

2. ة – ta marbuta harfi bilan tugagan so’z erkak zotini bildirsa yoki erkak kishiga qo’yilgan ism bo’lsa, bu so’z muzakkar so’z hisoblanadi. Masalan: خلیفه – xalifa, طَلْحَةُ – Talha
3. Bundan tashqari ة – ta marbuta bilan tugamagan ayrim otlar har ikkala jinsda ishlatalishi mumkin. Masalan:
  - فرسٌ – ot, كَبْنٌ – jigar
  - حالٌ – *x.ālun* holat
  - سوقٌ – *sūqun* bozor<sup>18</sup>

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Arab tilida grammatic jins turlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Quyidagi so‘zlarni muzakkarr va muannas jinsiga ajrating:
  - a) ma’nosiga ko‘ra muannas jinsiga tegishli bo‘lgan ismlarga 6 ta misol yozing;
  - b) shakliga ko‘ra muannas jinsiga mansub bo‘lgan ismlarga 6 ta misol yozing;
  - v) har ikkala jinsda bir xil ko‘rinishga ega bo‘lgan ismlarga 6 ta misol yozing.
3. Quyidagi ismlarning muannas jinsi shaklini yasang:

طالب – *tolib*, student; مُجْتَهِدٌ – *tirishqoq*; مؤمنٌ – *mo ‘min*;

فَلَّاحٌ – *dehqon*; جَمِيلٌ – *chiroylı*; عَاشِرٌ – *o ‘ninchi*;

شَيْطَانٌ – *faol*; صَابِرٌ – *sabrli*; بَصِيرٌ – *ko ‘ruvchi*;

مُتَرْجِمٌ – *tarjimon*<sup>19</sup>.

<sup>18</sup> Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.: Ўқитувчи, -С.40.

<sup>19</sup> Abdujabborov A. Arab tili. - Т.: 2005, - В.52.

4. Quyidagi so'zlarni muzakkar va muannas jinsga ajrating:

عَمْ، خَالٌ، خِيَاطَة، مُعَلِّمَة، جَارٌ، مُمَثَّل، مُسْلِمَة، فَلَاحٌ، مُدَرِّسَة، طَبَّاخٌ، تِلْمِيذَة، عَرَوْسٌ، أُمٌّ، أَخٌ

5. Quyidagi so'zlarni yozing va yod oling:

خَالٌ- <i>tog'a</i>	عَمَّة- <i>amma</i>
شَورٌ- <i>buqa</i>	سَوْدَاء- <i>qora</i>
بَيْضَاءُ- <i>oq</i>	عَلَامَة- <i>buyuk olim</i>
عَامِلٌ- <i>ishchi</i>	عَادِلٌ- <i>odil</i>
حَامِلٌ- <i>homilador</i>	مَرْيَمٌ- <i>Maryam</i>
حَمْزَةُ- <i>Hamza</i>	صَحِيفَة- <i>gazeta</i>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Баранов X. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- 4.Talabov E. Arab tili. -Т.: O'zbekiston, 1993.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.1989 د. لزمود فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القارة ،
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.

## 8-mavzu. Kelishik kategoriyasi

### **Reja:**

1. Arab tilida kelishik: bosh, qaratqich va tushum kelishigi.
2. Otlarning turlanishi.
3. Ikki kelishikli otlar.

**Tayanch iboralar:** *bosh, qaratqich, tushum kelishigi, ikki kelishikli, turlanish.*

O’zbek tilidan farqli o’laroq arab tilida ism guruhiga kiruvchi so’zlarning 3 ta kelishigi mavjud: Bosh, qaratqich, tushum kelishiklari. Bu kelishiklar o’ziga xos qo’shimchalarga ega. O’zbek tilidagi qolgan qo’shimchalar vazifasini predloglar deb atalmish so’zlar bajaradi. Quyidagi jadvalda birlik muzakkar va muannas jinsga tegishli so’z kelishikda turlangan. Qo’shimchalar o’zgarishiga diqqat qilamiz:

holat	kelishik	muzakkar j.	muannas j.	qo’shimchasi
noaniq	b.k.	مُعْلِمٌ	مَعْلِمَةٌ	ڻ - <i>-un</i>
	q.k.	مُعْلِمٌ	مَعْلِمَةٌ	ڦ - <i>-in</i>
	t.k.	مُعْلِمٌ	مَعْلِمَةٌ	ڇ - <i>-an</i>
aniq	b.k.	المُعْلِمٌ	الْمَعْلِمَةُ	ڻ - <i>-u</i>
	q.k.	المُعْلِمٌ	الْمَعْلِمَةُ	ڦ - <i>-i</i>
	t.k.	المُعْلِمٌ	الْمَعْلِمَةُ	ڽ - <i>-a</i>

Arab tilida qaratqich va tushum kelishigida bir xil qo’shimchaga ega bo’lgan qator so’zlar mavjud. Bular ikki kelishikli so’zlar deyiladi. Ikki kelishikli so’zlar الـ artiklisiz hamda tanvin qo’shimchasiz kelganda ham aniq holatda deb hisoblanadi. Ular bosh kelishikda *-u*, qaratqich-tushum kelishigida – *a* harakatini oladi. Bunday so’zlar الـ artikli bilan yoki izofa shaklida, yoki birikma olmoshi bilan birga kelganda uch kelishikli turlanishga aylanadi.

Bunday so’zlar quyidagi umumiy forma bo'yicha turlanadi:

kelishik	noaniq	aniq holat	izofa holatida
----------	--------	------------	----------------

	holat		
Bosh k.	أَجْمَلُ	الأَجْمَلُ	أَجْمَلُ الْبَنَاتِ
Qar.k	أَجْمَلَ	الأَجْمَلَ	أَجْمَلَ الْبَنَاتِ
Tush.k.	أَجْمَلَ	الأَجْمَلَ	أَجْمَلَ الْبَنَاتِ



### Savol va topshiriqlar:

1. Arab tilida nechta kelishik mavjud?
2. Ismlar turlanishida qanday kelishik qo'shimchalarini oladi?
3. Qanday so'zlar ikki kelishikli otlar turiga mansub?
4. Quyidagi so'zlarni kelishiklarda turlang:

فَلَاحٌ دәхқон  
مَجَلَّةٌ журнал  
مُدَرِّسٌ мударрис  
مُتَرْجِمٌ таржимон  
مُسْلِمٌ мусулмон  
مُتَعَلِّمٌ ўкувчи  
جَامِعَةٌ университет

## 5. Matnni tarjima qiling<sup>20</sup>:

أنا أوزبكي. فاطمة عربية. سميرة وسليمة تركيتان. أنتما عاملان. هما فلاحان. هي ممثلة. هو مهندس. المدرس شاب. المدرسة شابة. الباب مفتوح. النافذة مفتوحة. الشارع عريض. المدينة جميلة. الكتابان جديدان. زينب ومريم حسنيان. سليم مدرس وسليمة طالبة. السياراتان زرقاءان. البابان أحضران والنافذتان صفراوان. العصا قصيرة. اليدان طويلةان. العينان سوداوأن. الأذنان كبيرةان.

Foydalaniman adabiyotlar:

- 1.Баранов X. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- T.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - T., 2005.
4. Xalidov B.Z. Arab tili darsligi. – T.,2007.

## 9-mavzu. Son kategoriyasi. Ikkilik son.

**Reja:**

1. Son va uning grammatik turlari.
- 2.Ikkilik sonning yasalish va shakllari.
3. Ikkilik sonning kelishikda turlanishi

**Tayanch iboralar:** *son, ikkilik son, kelishik, grammatik tur, turlanish*

Gap ikki predmet yoki shaxs haqida ketganida grammatik ikkilik son ishlatiladi va u quyidagicha shakllanadi:

1. So'z oxiridagi tanvin damma o'rniga -انـ āni qo'shimchasini qo'shish bilan. Masalan:

شارع → شارع - ikkita ko'cha

2. Aniqlik artikli birikib kelgan so'zlarda ham bu qo'shimcha o'zgarmaydi:

<sup>20</sup> Abdujabborov A. Arab tili. – T.:2005. -B.56.

الشارع، الشارع، - البَيْتِانَ - البَيْتُ

3. “Ta marbuta” bilan tugagan so’zlar ikkilik sonda kelganda, “ta mAMDUDA”ga o’zgaradi. Masalan:

مِلْعَقَةٌ - مِلْعَقَتَانِ - ikkita qoshiq

4. اء - وان - harflari bilan tugagan so’zlarda ↗ belgisi o’rniga ↗ qo’shimchasini qo’shish bilan ikkilik son hosil qilinadi. Masalan: أسماء - اسماء ان - ikki ism

5. Ayrim ikki undoshli o’zakdan iborat so’zlardan ham ↗ qo’shimchasini qo’shish vositasida ikkilik son hosil qilinadi. Masalan:

أخوان - أخ - aka-uka

Bunday so’zlarning ayrimlaridan esa umumiyl qoida asosida:

يدان - يد - ikkita qo’l

6. ي - يان - يان - yāni - qo’shimchasi bilan tugagan so’zlardan ↗ qo’shimchasini qo’shish bilan. Masalan: مستشفيان - مُسْتَشْفَيَانِ - ikkita shifoxona

### Ikkilik shaklidagi so’zlarning kelishikda turlanishi

Ikkilik sondagi so’zlar kelishikda quyidagicha turlanadi :

noaniq holatda			aniq holatda		
kelishik	muzakkar	muannas	muzakkar	muannas	qo’shimchasi
b.k	תלמידان - تلميذان	تلنيذتان - تلنيذتان	التلميذان - التلميذان	التلميذتان - التلميذتان	- ان - an - āni
q.k.-t.k.	תלמידین - تلميذين	تلميذتين - تلميذتين	التلميذين - التلميذتين	التلميذتين - التلميذتين	- ين - yin - ayni

Jadvaldan ko’rinib turganidek, ikkilik sondagi so’zning qaratqich va tushum kelishiklari bir xil qo’shimchaga ega.

Shuningdek, aniq holatda ham, noaniq holatda ham bir xil kelishik qo’shimchalarini oladi.

Shu bilan birga ikkilik sondagi muzakkar va muannas so'zlar ham kelishiklarda bir xil qo'shimchaga ega bo'ladi.

Ilgari aytib o'tganimizdek, ko'rsatish olmoshlari kelishikda turlanmaydi. Lekin ularning ikkilik sondagi variantlari qaratqich va tushum kelishigida boshqacha shaklda bo'ladi:

№	kelishiklar	Yaqindagi predmet		Uzoqdagi predmet	
		Muz.j	Muan.j	Muz.j	Muan.j
1.	bosh kelishik	هذا	هاتان	ذانڭ	تانڭ
2.	qaratqich kel.	هڏين	هائين	ڏينڭ	ئىنڭ
3.	tushum kelish.	هڏين	هائين	ڏينڭ	ئىنڭ

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Arab tilida grammatic son necha turli bo'ladi?
2. Ikkilik son qanday hosil qilinadi?
3. Ikkilik son kelishikda qanday turlanadi?
4. Quyidagi birlikdagi so'zlarni ikkilikka aylantiring:

بَابٌ	эшик
بطاقة	карточка
بلدة	шахар
بيت	уй
بر	кудуқ
مُمَتِّلٌ	актёр
منزل	манзил
منضدة	стол
مهندس	инженер
مؤرخ	тарихшунос
موظف	хизматчи

5. Yuqorida berilgan yangi so'zlar orqali gap tuzing.
6. Quyidagi o'zbekcha jumlalarni arabiya o'giring:

Bo'r oq. Ikki doska yashil. Ikki portfel katta. Ikki gazeta yangi. Chiroq kichkina. Ikki xarita eski. Jurnal yangi. Ikki xona katta. Ikki devor oq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Баранов X. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
4. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.: 1981.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.لزموه فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989 د.
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.

### **10-mavzu. Ko'plik son. To'g'ri ko'plik**

**Reja:**

- 1.Arab tilida ko'plik son turlari haqida.
2. To'g'ri ko'plikning yasalish shakllari.

**Tayanch iboralar:** grammatik son, to 'g'ri ko 'plik, siniq ko 'plik, moslashuv.

### **Arab tilida ko'plik son turlari haqida**

Arab tilida gap ikkidan ortiq predmet yoki shaxs to'g'risida ketganida ko'plik son ishlataladi. Ko'plik son o'zining morfologik xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. To'g'ri ko'plik.
2. Siniq ko'plik.

#### **To'g'ri ko'plik**

So'zning oxiriga ma'lum qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil bo'ladigan ko'plik to'g'ri ko'plik deyiladi. To'g'ri ko'plik quyidagicha hosil bo'ladi:

1.Birlik muzakkar jins otlar oxiridagi tanvin o'rniga - وْنَ 'ūna qo'shimchasini qo'shish bilan. Masalan:

مُؤرّخْ mu 'arrixun tarixchi - مُؤرّخْونَ mu 'arrixūna tarixchi  
مَلَحْ mallāx.un dengizchi - مَلَحْونَ mallāx.ūna dengizchilar

Bu qo'shimcha yordamida ba'zan shaxsni bildirmaydigan so'zlardan ham ko'plik hosil qilish mumkin. Masalan:

سَنْوَنَ - سَنَةٌ yillar

2.Birlik muannas jins so'zlardan esa, (ة) – *atun* qo'shimchasi o'rniga (اً -*ātun*) qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilish mumkin. Masalan:

سيّارةُ	<i>sayyaratun</i>	avtomashina
سيّاراتُ	<i>sayyāratun</i>	avtomashina

3. Agar muannas jins otlar اء – yoki ئى – qo'shimchasida tugagan bo'lsa, hamza و w ga, ئى – esa ay ga aylanadi. Masalan:

صحراء s.ax.rā'u cho'l - صحراءاتِ s.ax.rāwātun cho'llar ذكرياتِ zikrā esdalik- ذكرياتِ zikrāyātun esdaliklar

### To'g'ri ko'plik shaklidagi so'zlarning kelishikda turlanishi

jins	kelishik	noaniq holat	aniq holat	qo'shimchalar
muz.j.	b.k. q.- t.k.	مُهَنْدِسُونَ مهندسينَ	المهندسونَ المهندسينَ	-ونَ -ūna -ينَ -īna
muan.j	b.k. q. – t.k.	مهندسانُ مهندسانِ	المهندسانُ المهندسانِ	-اتُ -ātun -اتُ -ātu -اتِ -ātin -اتِ -āti

Jadvalda ko'rinish turganidek, muzakkarr va muannas to'g'ri ko'plikdagi so'zlarda qaratqich va tushum kelishiklari bir xil qo'shimchaga ega hamda aniq va noaniq holatlarda ham kelishik qo'shimchalari o'zgarmaydi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Arab tilida ko'plik son turlari haqida nimalar bilasiz?
2. To'g'ri ko'plik birlik sondan qanday yasaladi?
3. Quyidagi yangi so'zlarni yozihg va yod oling:

## كلمات

مدرس	<i>mudarrisun</i>	o'qituvchi
متعلم	<i>muta 'allimun</i>	o'quvchi
حرة	<i>x.ujratun</i>	xona
موظف	<i>muvaż.z.afun</i>	xizmatchi
شبان	<i>shubbānun</i>	yigitlar
شابات	<i>shābbātun</i>	qizlar
فنان	<i>fannānun</i>	rassom; artist
ممثل	<i>mumassilun</i>	aktyor; artist
مصور	<i>mus.avvirun</i>	musavvir
مؤرخ	<i>mu'arrixun</i>	tarixchi
نجار	<i>najjārun</i>	duradgor
خياط	<i>xayyāt.un</i>	tikuvchi
ملح	<i>mallāx.un</i>	dengizchi
مترجم	<i>mutarjimun</i>	tarjimon

4. Yuqoridagi so'zlardan to'g'ri ko'plik hosil qiling.

5. Matnni tarjima qiling:

هم معلمون. أنتم مهندسون. نحن مصوروون. المعلمون حاضرون. الموظفون أيضاً حاضرون. المهندسون غائبون. المصوروون مشغولون. المؤرخون مشهورون. الملحون ما هرون. هل هم نجارون؟ لا. هم خياطون. هن معلمات. أنتن فلاحت. المعلمات غائبات. الفلاحات حاضرات. العاملات عاقلات. هل أنتن خياطات؟ نعم. نحن خياطات. هؤلاء مترجمون . أما أولائك فهم مدرسوون. نحن شبان. أنتن شبات. هؤلاء هم الطلاب. هذه هي الكلية. أولائك هم الممثلون.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М.,1985.
- 2.Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т.,1997
- 3.Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
4. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.: 1981.
- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -Т.: Nihol, 2010.
- 6.لزمود فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.

## **11-mavzu. Siniq ko‘plik**

### **Reja:**

1. Arab tilida siniq ko‘plik.
2. Siniq ko‘plikning shakllari.
3. Siniq ko‘plikda moslashuv.

**Tayanch iboralar:** grammatic son, to ‘g‘ri ko ‘plik, siniq ko ‘plik, moslashuv

### **Siniq ko‘plik**

Arab tilida siniq ko‘plik keng qo’llaniladi. U so’zning ichki tuzilishini o’zgartirish natijasida hosil bo’luvchi ko‘plikdir. Masalan:

كتاب	<i>kitābun</i>	kitob -	كتب	<i>kutubun</i>	kitoblar;
أخبار	<i>xabarun</i>	xabar -	أخبار	<i>’axbārun</i>	xabarlar;
طالب	<i>t.ālibun</i>	talaba –	طالب	<i>t.ullābun</i>	talabalar

### **Siniq ko‘plik shakllari**

Ciniq ko‘plikning turlari juda xilma-xildir. Bir xil qolipga tushadigan otlarning bir necha siniq ko‘plik turlari mavjud bo’lishi mumkin.

Masalan, qolipiga tushadigan otlarning 15 tagacha siniq ko‘plik turi bor: فاعلٌ، فاعلةٌ، فاعلَةٌ، فاعلَنْ، فاعلَنْ va boshqalar kabi.

Misollar:

طالب	<i>talaba</i>	طلاب	<i>ṭalāb</i>	yoki	طلبة	<i>ṭalabat</i>	<i>talabalar</i>
عالم	<i>olim</i>	علماء	<i>’ulāmā</i>	yoki	ولماء	<i>’ulāmat</i>	<i>olimlar</i>
فارس	<i>chavandoz, otliq</i>	فرسان	<i>’urṣān</i>	yoki	وارس	<i>’urṣat</i>	<i>otliqlar</i>

Siniq ko‘plik turlarini eslab qolish qiyin masala. Bu erda bizlarga lug’at yordamga keladi. Lekin ayrim otlar turi borki, ularning siniq ko‘pligi muayyan forma (qolip) asosida yasaladi.

Masalan, (muan.j. ) فاعلٌ (أفعلٌ) qolipidagi rang yoki jismoniy qusurni anglatadigan sifatlarning siniq ko‘pligi فُعلٌ فاعلٌ qolipidan yasaladi.

Masalan:

أحمرٌ	<i>qizil</i> (muan.j. حمراء )	حُمْرٌ	<i>qizil</i> ,
أعرجٌ	<i>oqsoq</i> (muan.j. عرجاء )	عُرْجٌ	<i>oqsoqlar</i>

فُعْلَةُ yoki qolipiga tushadigan otlarning siniq ko'pligi ; فُعْلَةُ qolipiga tushadigan otlar esa فِعْلٌ qolipiga tushadi.

Masalan,

أَمْمَةُ xalq, millat – ko'pligi أَمْمَةً xalqlar, millatlar;

دُولَةٌ davlat - ko'pligi دُولَةً davlatlar .

To'rt o'zakli otlar (ö bundan mustasno) siniq ko'pligi فَعَالِلُ yana فَوَاعِلُ، أَفَاعِلُ، مَفَاعِلٌ va boshqa qoliplardan yasaladi.

Masalan:

a) barcha to'rttala harfi ham o'zak bo'lgan ot – جَحْفَلٌ ulkan qo'shin - > جَحَافِلُ ;

b) birinchi yoki ikkinchi harfi o'zak bo'lmanan ot: uy -> مَنْزِلٌ uy -> مَنْزِلٌ نَافِذَةٌ ; مَرَاجِلُ deraza-> مَرْجَلَةٌ ; أَصْبَعٌ barmoq -> أَصْبَعٌ .

Besh o'zakli otlarning siniq ko'pligi فَعَالِلُ yana فَعَالِلُ، أَفَاعِلُ، مَفَاعِلٌ va boshqa qoliplardan yasaladi.

Masalan,

سَلَطَانٌ sulton – مَفَاتِحٌ kalit – مَفَاتِحٌ سَلَطَانٌ ; مَسَاكِينٌ kambag'al, bechora – مَسَاكِينٌ .

Agar so'z besh harfdan ortiq bo'lsa, uning siniq ko'pligi to'rt o'zakli so'zlar kabi hosil qilinadi. Ya'ni avvalgi to'rt harf olib qolib, qolgani tushirib qoldiriladi.

Masalan, عَنَادِلُ – عندليب bulbul – bulbullar.

Quyida ko'p qo'llaniladigan siniq ko'plik formalari namunasi keltirilgan:

1. أحزاب - حزب أفعال partiya -
2. علوم - علم فَعَولٌ bilim -
3. فُعلٌ مُدنٌ shahar - مدينة مَدِينَةٌ
4. فعالٌ كبارٌ katta - كبيرٌ kibir -
5. أَفْعُلٌ بحرٌ dengiz - زَيْلَهُ بَحْرٌ
6. أَفْعِلَةٌ لباسٌ kiyim - مَلْبَسٌ
7. فَعَلَاءٌ زعيمٌ dohiy - زعيمٌ زَعِيمٌ
8. أَفْعِلَاءٌ صديقٌ do'st - صديقٌ صَدِيقٌ
9. شجاعٌ فُعلانٌ botir - سُجَاجٌ فُعلانٌ
10. جرائد - جريدة فَعَائِلٌ gazeta -

11. مَرْضٌ - *bemor* فَعْلَىٰ  
 12. هَدَايَا - *sovg'a* - فَعَالَىٰ هَدِيَّةٌ

### Siniq ko'pliklarning quyidagicha turlanishi

1. Tanvin bilan tugagan siniq ko'pliklar birlik son kabi turlanadi.
2. 11 va 12 qoliplarga tushadigan siniq ko'pliklar kelishiklarda o'zgarmaydi .
3. Siniq ko'pliklarning qolgan vaznlari ikki kelishikli turlanishga ega.

### Moslashuv qoidalari

Agar aniqlanmish ot bilan ifodalanib, siniq ko'plik formasida va shaxsni bildirgan bo'lsa, aniqlovchi u bilan jinsda, sonda, kelishikda va holatda to'liq moslashadi. Masalan,

الطلابُ aqli talabalar (mz.)  
 الطالباتُ aqli talabalar (mn.)  
 رجالُ ko'pgina erkaklar (noaniq)

Agar aniqlanmish ot bilan ifodalanib, siniq ko'plik yoki muannas to'g'ri ko'plik shaklida va predmetni bildirgan bo'lsa, u holda aniqlovchi birlik muannas jinsda bo'ladi.

Masalan:

الكتبُ الجديدةُ yangi kitoblar (aniq)  
 النباتاتُ المفيدةُ foydali o'simliklar (aniq)

Yuqoridagi moslashuv qoidalari aniqlovchi vazifasida kelgan ko'rsatish olmoshlari va otlashgan kesimlarga ham tegishlidir. Uning farqi shundaki, umumiy qoidaga binoan kesim noaniq holatda bo'ladi.

Masalan:

هُوَلَاءُ الْوَزَرَاءُ عُقَلَاءُ	<i>Bu vazirlar oqildirlar.</i>
هُوَلَاءُ النِّسَاءُ عَاقِلَاتُ	<i>Bu ayollar oqiladirlar.</i>
هَذِهِ الصَّحْفُ جَدِيدَةٌ	<i>Bu gazetalar yangidir.</i>
هَذِهِ الْطَّاوُلَاتُ مَفِيدَةٌ	<i>Bu stollar foydalidir.</i>

### Savol va topshiriqlar:

1. Arab tilida siniq ko'plik deganda nimani tushunasiz?
2. Siniq ko'plikning qanday shakllari mavjud?
3. Siniq ko'plikdagi moslashuvni tushuntiring.

4. Quyidagi matnni o'qing, yozing va berilgan yangi so'zlar orqali o'zbek tiliga tarjima qiling:

### في المكتبة

نحن في المكتبة. في هذه المكتبة كثير من الكتب المطبوعة و المخطوطية. هنا توجد مؤلفات أدبية و علمية باللغات الأزبكية و الروسية و العربية و الانجليزية. هذه هي قاعة المطالعة. هي واسعة و نيرة. هنا طاولات و كراسى و خزانات للكتب. الطالب جالسون حول الطاولات. هم مشغولون بالقراءة و الكتابة. و أما الطالبات فهن جالسات حول المنضدة بالقرب من أولئك الطالب. فاطمة جالسة بجوار زينب. سليم جالس بجانب محمود.

هناك منضدة كبيرة. و على هذه المنضدة عدد كبير من الصحف والمجلات باللغات الوطنية و الاجنبية. اليوم في الصحف كثير من الاخبار الجديدة. جلس الطالب في المكتبة ساعة او ساعتين ثم ذهبوا الى الجامعة. و كذلك الطالبات ما جلسن طويلاً بل ذهبن الى هناك.

### كلمات

مَطْبُوعٌ	<i>bosma</i>	حَوْلَ <i>atrofida</i>
مَخْطُوطٌ	<i>qo'lyozma</i>	صِدَاقَةً <i>do'stlik</i>
قَاعَةُ الْمُطَالَعَةِ	<i>o'quv zali</i>	عَلَاقَاتٌ <i>aloqalar</i>
وَ كَذَلِكَ	<i>shuningdek</i>	قِرَاءَةً <i>o'qish</i>
بَلْ	<i>balki</i>	كِتَابَةً <i>yozuv</i>
نَيْرٌ	<i>yorug'</i>	عَدَّدٌ كَبِيرٌ مِنْ... <i>dan ko'p</i>
كَرَاسِيٌّ	<i>stullar</i>	ثُمَّ <i>so'ng</i>
بِالْقُرْبِ	<i>yaqinida</i>	صُحْفٌ <i>gazetalar</i>
شُعُوبٌ	<i>xalqlar</i>	سَاعَةً <i>soat</i>
أَوْ	<i>yoki</i>	مُؤْلَفَاتٌ <i>asar</i>
طَوْيِلاً	<i>uzoq</i>	ما <i>yo'q</i> <sup>21</sup>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Баранов Х. Арабско-русский словарь. -М., 1985.
- Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi.- Т., 1997
- Abdujabborov A. Arab tili. - Т., 2005.
- Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.: 1981.

<sup>21</sup> Халидов Б.З. Учебник арабского языка. -Т.: 1981.-С.108.

- 5.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. -T.: Nihol, 2010.
- 6.لزمود فهمي حجازم . علم اللغة العربية . القاهرة ، 1989
- 7.Ковалев А.А., Шарбатов Г. Ш. Учебник арабского языка. М., 1998.

## **12-mavzu. Son. Sanoq son va ularning qollanilishi**

**Reja:**

1. Son turlari. Sanoq sonlarning sanalmish bilan kelishi.
2. Sonlarning moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar bilan kelishi.
3. Sanoq sonlarning jins bilan kelishi va uning o‘zgarish qoidalari

**Tayanch iboralar:**son, sanoq, sanalmish, aniqlovchi, moslashgan, moslashmagan.

Arab tilida sonlar sanoq va tartib sonlarga bo’linadi. Sanoq sonlar ham, tartib sonlar ham bitta so’zdan iborat bo’lgan oddiy sonlarga va bir nechta so’zdan iborat bo’lgan murakkab sonlarga bo’linadi.

10 gacha bo’lgan sanoq sonlar jadvali

raqamlar		Muzakkar jins	Transkriptsiya	Muananas jins	Transkriptsiya
o’zbekcha	arabcha				
Bir	١	واحدٌ أَحَدٌ	vāx.idun ax.adun	واحدةٌ إِحْدَى	vāx.idatun 'ix.dā
Ikki	٢	إثْنَانِ	'isnāni	إثْنَانِ	'isnatāni
Uch	٣	ثَلَاثٌ	salāsun	ثَلَاثَةٌ	salāsatun
To’rt	٤	أَرْبَعٌ	‘arba‘un	أَرْبَعَةٌ	‘arba‘atun
Besh	٥	خَمْسٌ	xamsun	خَمْسَةٌ	xamsatun

Olti	٦	سِتٌّ	sittun	سِتَّةٌ	sittatun
Etti	٧	سَبْعُ	sab‘un	سَبْعَةٌ	sab‘atun
Sakkiz	٨	ثَمَانٌ	samānin	ثَمَانِيَةٌ	samāniyatun
To’qqiz	٩	تِسْعُ	tis‘un	تِسْعَةٌ	tis‘atun
O’n	١٠	عَشْرُ	‘asharun	عَشْرَةٌ	‘asharatun

Bu sonlar ichidan اىحدى kelishikda turlanmaydigan so'z. Predmetning bitta yoki ikkitaligi ta'kidlanishi kerak bo'lsa, yoki واحدُ واحدٌ yoki إثنانْ sonlari sanalmish otdan keyin qo'yiladi va sanalmish ot bilan moslashgan aniqlovchi kabi to'rt jihatdan moslashadi. Masalan:

<b>بِتَّا</b> <i>bitta o'qituvchi</i> (mn.)	مَدْرَسَةٌ وَاحِدَةٌ مَدْرَسَانِ إِثْنَانِ <i>o'qituvchi</i> (mn.)	<b>بِتَّا</b> <i>bitta o'qituvchi</i>
	مَدْرَسَةٌ إِثْنَانِ <i>ikkita o'qituvchi</i>	<b>إِثْنَانِ</b> <i>ikkita</i>

3-10 gacha bo'lgan sonlar sanalmish bilan ikki usulda birikadi:

1. Son bilan sanalmish ot izofa tashkil etadi. Bunda son aniqlanmish, sanalmish ot moslashmagan aniqlovchi bo'lib keladi. Son sanalmish ot birligining jinsiga teskari jinsda keladi, sanalmish ot esa, noaniq holatda ko'plikda keladi. Masalan:

<b>٣ طلابٍ</b>	<b>uch talaba</b>	<b>٣ طلابٍ</b>	<b>uch talaba (mn.)</b>
<b>٥ طلابٍ</b>	<b>beshta talaba</b>	<b>٥ طلابٍ</b>	<b>beshta talaba (mn.)</b>

